

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

«Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik» fakulteti

**«MDH va Yaqin Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti va mamlakatshunosligi»
kafedrası**

III kurs nemis-rus guruhi talabasi Maxmasobirova Nigoraning

«MDH mamlakatlari iqtisodiyoti» fanidan

KURS ISHI

**MAVZU: MDH mamlakatlarida yoqilg`i-energetika sanoatining rivojlanish
tendensiyalari**

Ilmiy-rahbar: katta o`qituvchi Xasanova J.N

Topshirilgan sana _____

Himoya sanasi _____

Ball_____

Ilmiy rahbar imzosi_____

Toshkent-2015

Reja:

Kirish

1. MDH mamlakatlarining yoqilg`i-energetika sanoati va uning xususiyatlari

1.1. MDH mamlakatlarining yoqilg`i-energetika kompleksi va uning tarkibi

1.2. MDH mamlakatlarining jahon neft bozoridagi o`rni

2. MDH mamlakatlarida yoqilg`i-energetika sanoati rivojlanish dinamikasi

2.1. MDH mamlakatlarida yoqilg`i-energetika sanoati muammolari

2.2. MDH mamlakatlarida yoqilg`i-energetika sanoati istiqbollari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

Kirish

Kurs ishining dolzarbligi. Insoniyat o'z rivojlanishi uchun doimo energiya mahsulotlari va manbalariga ehtiyoj sezgan va taraqqiyotning hozirgi post-industrial bosqichida ushbu ehtiyoj har doimgidanda yuqori hisoblanadi. Hozirgi iqtisodiy globalizatsiya va modernizatsiya jarayonida yoqilg'i-energetika sanoati mamlakatlar iqtisodiyotining dinamik o'sishi ta'minlovchi hamda raqobatbardoshlik darajasini oshirishga xizmat qiluvchi ustuvor sohalardan biri hisoblanadi. Yoqilg'i-energetika majmui xalq xo'jaligining bazaviy tarmog'i, iqtisodiyot va texnika taraqqiyotining mustahkam poydevori hisoblanadi va YaIM shakllanishida, sanoat markazlari va hududlarini vujudga kelishida katta ahamiyat kasb etadi. Har qanday mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasi u ishlab chiqarayotgan va iste'mol qilayotgan yoqilg'i-energiya miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Yoqilg'i-energetika sanoatining ustuvor sohalardan biri ekanligini Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi fikrlari tasdiqlaydi: "Yoqilg'i-energetika kompleksi - bu nafaqat mustaqilligimizning asosi, poydevori, balki eksport va valyutaning muhim manbaidir".¹

MDH mamlakatlari jahon yoqilg'i-energetika tizimining asosiy bo'g'inlaridan bo'lib, yoqilg'i-energetikaning yirik eksportyori hisoblanadi. MDH mamlakatlari hissasiga jahon neft zaxiralarining 8 foizi, gaz zahiralarining 30 foizi va ko'mir zaxiralarining 26 foizidan ortig'i tog'ri keldi.²

MDH mamlakatlarida yoqilg'i-energetika sohasida ro'y berayotgan o'zgarishlar nafaqat ushbu mintaq, balki jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Shu bois ham, ilmiy doiralar va mutaxassislar uchun MDH mamlakatlarida yoqilg'i-energetika sanoatini tadbiq qilish, unda alohida mamlakatlarning o'rnini o'rganish, kelajakdagi tendensiyalarini tahlil qilish dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda.

¹ Karimov I.A. "O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi" 13-jild.-T.: "O'zbekiston", 2005

² E.A.Козловский «Страны СНГ: исследование недр – стратегическая проблема»

Kurs ishining maqsadi va vazifalari. Kurs ishining maqsadi MDH mamlakatlarida yoqilg'i-energetika sanoatining rivojlanish tendensiyalarini o'rganishdan iborat. Uning vazifalari esa quyidagilar:

- ✓ MDH mamlakatlarining yoqilg'i-energetika sanoatining xususiyatlarini o'rganish;
- ✓ MDH mamlakatlari yoqilg'i-energetika majmuining tarkibini ko'rib chiqish;
- ✓ MDH mamlakatlarida yoqilg'i-energetika sanoati rivojiga to'sqinlik qilayotgan muammoli vaziyatlarni taxlil etish;
- ✓ MDH mamlakatlarida yoqilg'-energetika sanoati rivojlanish shart-sharoitlari va istiqbollari nazar tashlash.

Kurs ishining predmeti. MDH mamlakatlari yoqilg'i-energetika sanoatida ro'y berayotgan o'zgarishlar, soha rivoji bilan bog'liq bo'lgan muammoli vaziyatlar, tendensiyalar va ularning jahon yoqilg'i-energetika tizimiga ta'siri.

Kurs ishining obyekti. MDH mamlakatlari yoqilg'i energetika sanoati, komplekslari va ularning tarkibiy qismlari.

Kurs ishining tarkibiy tuzilishi. Kurs ishi kirish, to'rtta reja, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Kurs ishining umumiy hajmi 54 betni tashkil etadi.

1. MDH mamlakatlarining yoqilg`i-energetika sanoati va uning xususiyatlari

1.1. MDH mamlakatlarining yoqilg`i-energetika kompleksi va uning tarkibi.

Har qanday mamlakatning barqaror rivojlanishida yoqilg`i-energiya resurslari va sanoati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Chunki biror turdagi mahsulotni ishlab chiqarish uchun ma`lum miqdorda energiya sarf qilinadi, shu bilan birga har bir mahsulotning tannarxi ham bevosita energiya (issiqlik va elektr energiyasi) iste`moliga bog`liq hisoblanadi.

Turli yoqilg`i va energiya turlarini qazib olish hamda ishlab chiqarish bilan shug`ullanuvchi sanoat tarmoqlari majmui **yoqilg`i-energetika majmui (kompleksi)** deb ataladi. Uning tarkibiga shuningdek quvurlar va yuqori voltli liniyalar ham kiritiladi.<sup>3</sup> Yoqilg`i-energetika majmui xalq xo`jaligining barcha tarmoqlari (sanoat, qishloq xo`jaligi, transport) va aholining kundalik xayoti uchun juda katta ahamiyatga ega. Yoqilg`i-energetika majmui sanoatning bir tarmog`i bo`lsa ham u umumiqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Turli yoqilg`i va energetika turlarini qazib chiqarish va qayta ishlash **yoqilg`i-energetika sanoati** deyiladi va u o`z tarkibiga quyidagi sanoatlarni biriktiradi:

1. Yoqilg`i sanoati: Gaz, Neft, Ko`mir Tofr, slans sanoati;
2. Energetika sanoati: IES, GES, AES;

Milliy iqtisodiyotlarning yoqilg`i va energetika mahsulotlariga bo`lgan talabi iqtisodiyot dinamikasi va energiya tejash intensivligiga bog`liq hisoblanadi.

Yoqilg`i sanoati turli yoqilg`i mahsulotlarini topish, qazib olish va qayta ishlash bilan shug`ullansa, elektroenergetika iqtisodiyotning bazaviy tarmog`i sifatida jamiyat hayotining rivoji uchun ustuvor hisoblanadi. Jahon mineral yoqilg`i zaxiralarining umumiy qiyati 12,5 trln.tonnadan ortiq bo`lib, ularning 60 foizi ko`mir, 12 foiga yaqini neft, 15 foizga yaqini tabiiy gaz, qolgan qismi slans, torf va boshqa yoqilg`i turlari xissalariga tog`ri keladi.⁴


³ www.Grandars.ru/Топливо-энергетический комплекс

⁴ www.e-cis.info Информационно-аналитические материалы “О состоянии и развитии минерально-сырьевой базы государств – участников СНГ (2014 год)”

Dunyoda taxminan 13000 mlrd. kVt/s elektroenergiya ishlab chiqariladi va uning 25 foizga yaqini AQSH xissasiga tog`ri keldi.

1-chizma

Jahonda elektroenergiya ishlab chiqarilishi tarkibi (% da):



Manba: www.Grandars.ru/Размещение отраслей топливно-энергетического комплекса

Jahonda elektroenergetikaning taxminan 60 foizi IES larda ishlab chiqarilsa, Rossiya va Xitoyda bu ko`rsatkich 70-80 foizni tashkil etadi. Fransiya va Belgiyada elektroenergiyaning 60 foizi, Shvetsiya va Shvetsariyada 40-45 foizi AES larda ishlab chiqariladi.⁵

Jahon yonilg`i resurslarining eng asosiylaridan biri neft mahsulotlari hisoblanadi. Jahon neft zaxiralarining asosiy qismi Yaqin va O`rta Sharq mintaqasi (Saudiya Arabistoni, Eron, Iroq) shuningdek, Venesuela, Rossiya, AQSH, Xitoyda joylashgan. Tabiiy gaz zaxiralari bo`yicha esa lider mamlakatlar Rossiya, Eron, Qatar, Saudiya Arabistoni hisoblanadilar. Yaponiya, Avstraliya, Hindiston, JAR kabi mamlakatlar esa neft va gaz rezervlariga ega emaslar. Ko`mir zaxiralari dunyoning deyarli xar bir mamlakatida bo`lib, ularning deyarli 80 foizi faqatgina uch mamlakat –Rossiya, AQSH va Xitoy hududida joylashgandir.

Yuqorida ta`kidlanganidek, MDH mamlakatlarining jahon neft zaxiralaridagi ulushi 8 foiz, gaz zaxiralaridagi ulushi 30 foiz, ko`mir zaxiralaridagi ulushi 26 foizni tashkil etadi.⁶

⁵ www.Grandars.ru/Размещение отраслей топливно-энергетического комплекса

⁶ Е.А.Козловский «Страны СНГ: исследование недр – стратегическая проблема»

MDH mamlakatlarida nafaqat yoqilg'i-energetika resurslari, balki barcha mineral resurslarning notekis taqsimlanishini kuzatishimiz mumkin. Turli xil foydali qazilmalarga boy mamlakatlar sirasiga Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston va Ukrainani kiritishimiz mumkin. Barcha MDH mamlakatlari tomonidan qazib oladigan neft, gaz, toshko'mir, uran, temir rudasi, oltin va kumushning 85-90 foizi ushbu to'rt mamlakat xissasiga tog'ri kelmoqda.

Rossiya xissasiga MDH mamlakatlari umumiy neft zaxiralarinig taxminan 70 foizga yaqini to'g'ri keladi.

1-jadval

MDH mamlakatlari neft zaxiralari:

Mamlakat	Neft zaxirasi (mlrd.tonna)	MDH mamlakatlari umumiy neft zaxirasidagi ulushi (% da)
Rossiya	11,9	70
Qozog'iston	3,9	12
Ozarbayjon, O'zbekiston, Turkmaniston	1,2	16

Manba: www.e-cis.info/Информационно-аналитические материалы “О состоянии и развитии минерально-сырьевой базы государств – участников СНГ (2014 год)”

MDH mamlakatlarida **neft** qazib olish (gaz kondensati bilan birga) hajmi 2012 yili 659 ml.tonnaga baxolandi va jahon neft qazib olishining 16 foizini tashkil etdi. Bu yili Qozog'istonda 79,2 mln.tonna, Ozarbayjonda 43,4 mln tonna, Turkmanistonda 11 mln.tonna neft (gaz kondensati bilan birga) qazib olindi. Rossiya suyuq uglevodorodlar qazib olishda (516,8 mln.tonna) yetakchilik qilmoqda va 2012 yilda MDH mamlakatlari umumiy neft qazib olish hajmining 78 foizi Rossiya hissasiga to'g'ri keldi.⁷

Jahon **gaz** zaxiralarining 30 foizga yaqini MDH mamlakatlari hududida joylashgan bo'lib, ularning hajmi 54,3 trln.m³ ni tashkil etadi. Ammo gaz zaxiralariga Hamdo'stlikning barcha mamlakatlari ega emas.

⁷ www.shafranik.ru/«Мировой рынок нефти: взгляд из России»

MDH mamlakatlarining aniqlangan gaz zaxiralari hajmi:

Mamlakat	Gaz zaxiralari hajmi trln.m³	Umumiy MDH mamlakatlari zaxirasidagi ulushi (% da)
Rossiya	33	61
Turkmaniston	17,5	32
Qozog`iston	1,3	2,4
O`zbekiston	1,1	2
Ozarbayjon	0,9	1,7
Ukraina	0,6	1

Manba: www.e-cis.info/Информационно-аналитические материалы “О состоянии и развитии минерально-сырьевой базы государств – участников СНГ (2014 год)”

2012 yilda MDH mamlakatlarida gaz qazib chiqarish hajmi 873,3 mlrd.m³ ni tashkil etdi. Bu yil Rossiya gaz qazib chiqarish jami bo`yicha dunyoda ikkinchi o`rinni egalladi.

MDH mamlakatlarida gaz qazib chiqarish jahmi (2012 yil):

Mamlakat	Ishlab chiqarilgan gaz miqdori (mlrd.m³)	MDH da umumiy ishlab chiqarilgan gaz hamidagi ulushi (% da)
Rossiya	652,6	74,8
Turkmaniston	69	8
O`zbekiston	62,9	7,2
Qozog`iston	40,3	4,6 %)
Ozarbayjon	27,9	3,2
Ukraina	20	2,3

www.e-cis.info/Информационно-аналитические материалы “О состоянии и развитии минерально-сырьевой базы государств – участников СНГ (2014 год)”

Rossiyada qazib chiqarilgan gaz hajmi 652,6 mlrd.m³ ni tashkil etdi va MDH mamlakatlarida qazib chiqarilgan umumiy gaz hajmining 74,8 foizi aynan Rossiya xissasiga to'g'ri keldi. MDH mamlakatlarida ikkichi o'rinni Turkmaniston (69 mlrd.m³ va MDH umumiy gaz qazib chiqarishining 8 foizi) egalladi. O'zbekistonda esa, bu yili 62,9 mlrd.m³ (7,2 %), Qozog'iston 40,3 mlrd.m³ (4,6 %), Ozarbayjon 27,9 mlrd.m³ (3,2%) va Ukraina 20 mlrd.m³ (2,3%) gaz qazib chiqardi.⁸

MDH mamlakatlari ulkan **ko`mir** zaxiralariga ega hisoblanib, dunyo ko`mir zaxiralarinig 26 foiziga egalik qiladi. Umumiy ko`mir zaxirlari hajmi 225 mlrd.tonnani tashkil etadi.

3-jadval

Ba`zi MDH mamlakatlari ko`mir zaxiralari:

Mamlakat	Ko`mir zaxiralari (mlrd. tonna)	MDH mamlakatlari umumiy zaxiralaridagi ulushi (% da)
Rossiya	157	70
Ukarina	34	15
Qozog'iston	34	15

Manba: www.e-cis.info/Информационно-аналитические материалы “О состоянии и развитии минерально-сырьевой базы государств – участников СНГ (2014 год)”

MDH mamlakatlarida 2012 yili 269,3 mln.tonna ko`mir qazib olindi va bu korsatkich 2009 yilga nisbatan 18 foiz o'sdi. Ko`mir qazib olishda yetakchi mamlakatlar: Rossiya 198,5 mln.tonna, Qozog'iston 47,4 mln.tonna, Ukraina 43,2 mln.tonna ko`mir qazib oldi. Ko`mir qazib olish hajmining o'sishiga mamlakatlar ichki bozoridagi va tashqi bozordagi talabning o'shishi sabab bo'ldi.


Rossiya, Qozog'iston va O'zbekistonda uranning zaxiralari mavjud bo'lib, ammo 1 kg uran qazib olish hozirda 80 AQSH dollariga tushishini hisobga olsak, bu ushbu zaxiralardan iqtisodiy samarali foydalanish darajasini pasaytiradi.

⁸ www.e-cis.info/Информационно-аналитические материалы “О состоянии и развитии минерально-сырьевой базы государств – участников СНГ (2014 год)”

Ozarbayjon hududining 2/3 qismi neft va gazga boy hisoblanadi. Apsheron yarim orolida Kasbiy dengizi shelflarida Baku va Apsheron arxipelagida neftr-gaz zaxiralarining asosiy qismi joylashgan. Neft zaxiralariga shuningdek markaziy cho`lli hududlar, janubi-sharqiy Shirvon, Jeyranchel, Gobuston, Siazan Adjinour viloyatlari boy.⁹

1-diagramma

Ozarbayjonda yoqilg`i-energetika mahsulotlari ise`moli tarkibi (%da)



Manba: Azerbaijan: "Follow-UP IN-DEPTH Review of the Investment Climate and Market Structure in the Energy Sector" Energy Charter Secretariat, 2013

Jadvaldan korinib turibdiki, Ozarbayjonda yoqilg`i-energetika mahsulotlari iste`molida tabiiy gaz birinchi o`rinni egallayotgan bo`lsa, 2006-2012 yillarda elektroenergiya iste`moli hajmi bir oz qisqargan.

Belorus Respublikasida "Belorusneft" birlashmasi tomonidan 2012 yili 1,66 mln.tonna neft qazib chiqarildi. Neft zaxiralarining cheklanganligiga qaramasdan ishlab chiqariladigan neft mahsulotlarining 80 foizi eksport qilinmoqda. Orshanskaya va Podlyasko-Bretskaya past tekisliklarida olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko`ra, mamlakatda neft qazib chiqarish hajmi XXI asrda dinamik ravishda o`sib boradi va ichki talabning 5-6 foiz darajada qondiradi. Belorussiyada hozirgi kunda aniqlangan gaz zaxiralari mavjud emas. 46 ta aniqlangan torf konlari

⁹ www.eia.gov/ Azerbaijan - Analysis - U.S. Energy Information Administration (EIA)

mavjud bo`lib, ularning umumiy hajmi 111 mln.tonnaga teng va 78, 2 mln tonna torf yoqilg`isi ishlab chiqarish, 32,8 mln tonnasi esa qishloq xo`jaligida ishlatishga yaroqli.¹⁰

**Qirg`iziston Respublikasida** yoqilg`ining ko`mir, slans, torf, gaz, neft kabi turlari uchraydi. Mamlakatda ayniqsa yirik ko`mir (tosh va qo`ng`ir) zaxiralari mavjud bo`lib, ushbu ko`rsatkich bo`yicha Qirg`iziston Markaziy Osiyoda yetakchi o`rinlardan birini egallaydi.

2-chizma

Qirg`iziston ko`mir zaxiralari joylashgan basseynlar:

Janubiy Farg`ona	Uzgen	Shimoliy Farg`ona	Kavak
Sulyukta	Ko`k-yangak	Toshko`mir	Ko`k-Moynoq
Qizil Qiya	Kumbel	Qora-TUT	Minkush
Beshburxon	Zindon	Tugenek	Qora-Kecha
Abshir			
Olmalik			

Manba: www.e-cis.info/Информационно-аналитические материалы “О состоянии и развитии минерально-сырьевой базы государств – участников СНГ (2014 год)”

Qirg`iziston hududida 70 dan ortiq ko`mir konlari mavjud bo`lib, umumiy ko`mir zaxiralari hajmi 1,3 mlrd. tonnaga teng. Har yili qazib olinayotgan ko`mir hajmi 800-900 ming tonnani tashkil etmoqda. YaIM ning 5 foizi, sanoat ishlab chiqarishning 16 foizi, davlat byudjeti daromadlarining 10 foizi elektroenergetika sohasiga to`g`ri kemoqda.¹¹

**Qozog`iston Respublikasida** neftning asosiy zaxiralari Tengiz, Mishbuloq, Shotliq, Davoza hududlarida joylashgan. Janubiy Turgay pasttekisligidan topilgan yangi neft rayoni mamlakatda neft qazib chiqarish imkoniyatlarini yanada oshiradi. Qozog`istonda gaz qazib chiqarish ishlari 30 dan ortiq hududlarda amalga oshirilayotga bo`lib, gaz kondensat zaxiralarning umumiy hajmi 866,9

¹⁰ www.newtemper.com/ Топливо-энергетический комплекс Республики Беларусь

¹¹ www.neftegaz.ru/ Нефть, газ, уголь и энергетика Киргизии


mln.tonnani tashkil etmoqda. Kondensat zaxiralarining eng katta qismi (91 foizi) “Qorachaganak” hududi joylashgan. Boshqa kondensat bor hududlarda uning hajmi 0,2-0,3 mln.tonnadan ortiq emas. "Buxoro-Ural", "O`rta Osiyo- Markaz", “Buxor-Toshkent- Frunze-Alma-Ata” gaz quvurlari mamlakatdagi gaz mahsulotlarini tashishda muhim rol o`ynaydi.

Qozog`istondan tabiiy gaz eksporti 10,5 mlrd.m³ (220 mln.AQSH dollari qiymatida) ni, gaz kondensanti eksporti esa 5 mln tonna (400 mln.AQSH dollari qiymatida) dan ortiqdir. “KazTransGaz” AJ bugungi kunds 10 mingdan ortiq truboprovod, 26 kompressor stansiya ega.¹²

Tojikiston Respublikasi neft zaxiralari 10-11mln.tonna, gaz zaxiralari 5-6 mlrd.m³ deb baxolanadi. Tojikistonda 12 ta neft va gaz zaxiralari mavjud hududlar topilgan bo`lib, ulaning 6 tasi neft, 3 tasi gaz-neft, 2 tasi gaz va 1 tasi neft-gaz kondensat konlari hisoblanadi. Rossiyaning “Газпром”, Shvetsariyaning “DWM Petroleum AG” va AQSH ning “Tetis petroleum” kompaniyalari Tojikiston hududida neft zaxiralari qidiruvi bilan shug`ullanmoqdalar.

3-chizma

Tojikiston neft va gaz konlari joylashgan hududlar:



Manba: www.mfa.tj/ Обзор энергетического сектора Республики Таджикистан

¹² www.artiklez.com/ Топливо-энергетический комплекс Республики Казахстан и его экспортный потенциал

2013 yilda mamlakatda 500ming tonna ko`mir qazib olindi. Ko`mir zaxiralari hajmi 4,5 mlrd.tonna deb baxolanadi va 7 ta hududda ko`mir qazib olish ishlari olib borilmoqda.¹³

Tojikistonda elektroenergiya ishlab chiqarish hajmi 2012 yili hisobidan 7,5 foizga o`sdi va 7300 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.¹⁴

Rossiyaning prognozlashtirilgan umumiy neft zaxiralarining hajmi 62,7 mlrd.tonnaga teng. Ushbu zaxiralarning katta qismi sharqiy va shimoliy rayonlarda, arktik shelflarda joylashgan. XXI asrning boshida Rossiyada 2152 neft aniqlangan hududlar topilgan bo`lib, hozirda ularning ½ qismida neft qazib olish ishlari olib borilmoqda. Rossiyada neft zaxiralari boshlang`ich potensialining 1/3 qismi realizatsiya qilingan bo`lib, sharqiy rayonlarda va rus shelflarida resurslarning 10 foizidan oqtig`i realizatsiya qilingan. Hozig`i kunda G`arbiy Sibir hududida suyuq uglevodorodlar topish imkoniyatlari ko`zga tashlanmoqda.

4-chizma

Rossiyaning asosiy neft-gaz provinsiyalari:

G`arbiy Sibir

Timano-Pichorsk

Leno-Tunguss

Leno-Vilyuysk

Oxotskaya

Volgo-Ural

Kasbiybo`yi

Shimoliy Kavkaz-Mangishloq

Yenesey-Anabar

Manba: www.e-cis.info/Информационно-аналитические материалы “О состоянии и развитии минерально-сырьевой базы государств – участников СНГ (2014 год)”

¹³ www.mfa.tj/ Обзор энергетического сектора Республики Таджикистан

¹⁴ Таджикистан Экспресс--оценка и анализ пробелов. 2013г.

Asosiy neft-gaz viloyatlari esa quyidagilar:

- Boltiqbo`yi;
- Anadir;
- Sharqiy-Kamchatka.

Rossiya gaz zaxiralari 32,9 trln.m³ bo`lib, jahon gaz zaxiralaridagi ulushi 17,6 foizni tashkil etadi.

4-jadval

Rossiyada gaz qazib olish dinamikasi (hududlar bo`yicha, 2010-2013)

Hudud		2010	2011	2012	2013
Yevropa qismi	Mlrd.m ³	45,0	43,4	40,8	39,7
	%	6,8	6,3	6,1	5,8
G`arbiy Sibir	Mlrd.m ³	587,0	606,7	588,0	597,6
	%	88,1	88,2	87,6	87,4
Sharqiy Sibir	Mlrd.m ³	8,9	11,4	15,1	18,1
	%	1,4	1,7	2,2	2,7
Uzoq Sharq	Mlrd.m ³	23,9	26,0	27,6	28,5
	%	3,6	3,8	4,1	4,2
Umumiy	Mlrd.m ³	665,5	687,5	671,5	648,0
	%	100,0	100,0	100,0	100,0


Manba: www.burneft.ru

Jadvaldan ko`rishimiz mumkinki, Rossiyada gaz qazib olinuvchi eng asosiy hudud G`arbiy Sibir bo`lib, u yerda mamlakat hududi bo`ylab qazib olinadigan umumiy gaz hajmining deyarli 90 foizi qazib chiqariladi.

British Petroleum baxolashi bo`yicha, Rossiya neft zaxiralari 87,2 mlrd.barrelga ( 11,9 mlrd.tonna) teng va jahon neft zaxiralarining 5,2 foiziga to`g`ri keladi.

2-diagramma

Rossiyada neft qazib chiqarish va eksport qilish dinamikasi (mln.tonna):




Manba: Срочная информация по актуальным вопросам/Федеральная служба государственной статистики

2014 yilda Rossiyada 526,75 mln.tonna neft qazib chiqarilgan bo'lsa, 2015 yilning dastlabki 2 oyida 86 mln.tonna neft qazib chiqarildi. Bu 2014 yilning aynan shu davriga nisbatan 0,7 foiz ko'p deganidir. 2015 yilda mamlakat Energetika Vazirligining prognozlariga ko'ra 525-527 mln.tonna neft qazib chiqaradi.¹⁵

Rossiyada ko'mirning barcha ko'rinishdagi geologik turlari uchraydi. Rossiya ko'mir zaxiralari bo'yicha dunyoda AQSH va Xitoydan so'ng 3-o'rinda turadi. Asosiy ko'mir basseynlari- Kuznetsk, Pechorsk, Janubiy-Yakutiya, va Donetskning Rossiyaga tegishli qismi. Mamlakat hududining sharqiy qismida umumiy ko'mir zaxiralarining 63 foizi joylashgandir.

3-diagramma

**Rossiyada yoqilg'i-energetika mahsulotlari ishlab chiqarilishi hajmi
(01.09.2014-10.03.2015)**



Manba: www.minenergo.gov.ru/Министерство Энергетики Российской Федерации

Rossiyada 46 mingta joyda torf zaxiralari topilgan bo'lib, ularning hajmi 160 mlrd.tonnaga teng. Torf zaxiralariga eng boy hududlar Vasyugan va Shimoliy Sibir bo'lib ularda 18,8 mlrd.tonna (Rossiya umumiy torf zaxiralarining deyarli 15 fozi) torf zaxiralari joylashgan.¹⁶

Turkmaniston Respublikasining asosiy tabiiy boylgi neft va gaz hisoblanadi. Neft zaxiralarinng asosiy qismi Lenin (Koturdepe), Barsa-Gelmas (G'arbiy

¹⁵ www.ria.ru/Минэнерго ожидает добычу нефти в 2015 году на уровне 525 млн тонн

¹⁶ www.ecoteco.ru/ Топливо-энергетический комплекс России

Turkman chuqurligi) da joylashgan. Gaz zaxiralari esa mamlaktning sharqiy qismida Shatliq, Achak, Naipda topilgan. Gaz zaxiralari bo'yicha Turkmaniston MDH mamlakatlari ichida Rossiyadan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi. Yura davriga tegishli qatlamlarda ko'mirning juda kichik zaxiralari aniqlangan.

Turkmaniston Respublikasi Energetika Vazirligining bergan ma'lumotlariga ko'ra, 2014 yilning dastlabki 7 oyi ichida mamlakatda energiya ishlab chiqarish hajmi 12 foizga, eksport hajmi 4 foizga, bu sohada xizmat ko'rsatish hajmi 10,8 foizga o'sdi. Avtomobil binzeni ishlab chiqarish hajmi 2 foizga, dizel yo'qilg'isi ishlab chiqarish 1 foizga, polipropilen ishlab chiqarish 5,5 foizg, kondensatlangan gaz ishlab chiqarish 5,2 foizga o'sgan bo'lsa, mazut qazib olish deyarli 4 foizga qisqardi.¹⁷

O'zbekistonning yoqilg'i-energetika kompleksi. Mustaqillik yillarida Prezidentimiz rahnamoligida mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan yangilanish va o'zgarishlar sanoat tarmoqlariga "Yashil iqtisodiyot" tizimini joriy qilish, innovasion taraqqiyotni jadallashtirish, tabiiy yoqilg'i-energiya resurslaridan oqilona foydalanishga qaratildi.

Yoqilg'i-energetika resurslaridan foydalanish samaradorligini tubdan oshirish orqali iqtisodiyotning barcha sohalarini hamda aholini energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash mamlakatimiz energetika siyosatining bosh maqsadi etib belgilandi.

O'zbekiston yoqilg'i sanoati 3 tarmoqdan iborat:

1. Neft sanoati;
2. Gaz sanoati;
3. Ko'mir sanoati.


O'zbekiston yoqilg'i-energetika resurslariga boy mamlakat hisoblanadi. Ayniqsa, gaz va neft zaxiralari ulkan: 160 dan ortiq neft va gaz konlari mavjud bo'lib, O'zbekistonda sanoat zaxiralari ega bo'lgan 86 neft koni ochilgan.

¹⁷ www.neftegaz.ru/ Результаты ТЭК за 7 мес 2014 г на заседании КабМина Туркменистана. Г.Бердымухамедов был очень строг

Neft qazib chiqarish 63 konda amalga oshirilmoqda va neft hozirgi darajada qazib olinsa, neft zaxiralari Respublika ehtiyojlarini 30 yildan oshiqroq ta'minlaydi. Umumiy zaxiralari 185 mln.tonna bo'lgan 14 ta neft konida xozir razvedka ishlari olib borilmoqda.

5- chizma

O'zbekistonda mavjud neft konlari¹⁸:



O'zbekistonda prognozlashtirilgan tabiiy gaz zaxiralari 66 trln.metr kubga teng bo'lib, dunyo gaz zaxiralarining 1.3 foizini tashkil etadi va gaz zaxiralari bo'yicha O'zbekiston dunyoda 14-o'rinda turadi.

O'zbekistonda neft qazib chiqarish hajmi dinamikasi (mln.tonnada)¹⁹:

5-jadval

Yillar	1960	1970	1980	1990	1995	1997	2006	2013
Qazib olingan neft hajmi,	1603	1805,3	1329,4	2810	7600	7900	5448	7600

¹⁸ Salimov X., Xatamov A., Mamajonov M. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2008.

¹⁹ Ю.К. Шафраник: “Энергетика в СНГ: “Вчера, сегодня, завтра” Федеральный Справочник «Топливо-энергетический комплекс СНГ», выпуск 13, 2013 г

Respublikamizning asosiy gazga boy hududi Buxoro-Xiva regionini sanaladi. Bu yerda mamlakat gaz zaxiralarining 90 % i to'plangan. Gaz qazib olish 52 konda amalga oshirilmoqda (zaxiralari 3000 mlrd. metr kub) va 48 kon ishlatish uchun hozirlab qo'yilgan (umumiy zaxiralari 5000 mlrd.metr kub). Istiqbolli gaz kondensati zaxiralari 300 mln.tonnadan ortiq deb baxolanmoqda. Tabiiy gazni ham, gaz kondensatini ham asosiy prognoz zaxiralari Buxoro-Xiva va Surxondaryo regionlarida to'plangan.²⁰ 5-jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekistonda gaz qazib chiqarish jami mustaqillikka erishilgandan so'ng deyarli 3 barobar o'sdi.

2013 yildan Surg'il koni bazasida Ustyurt gaz-kimyoy kompleksini qurish ishlari boshlangan bo'sa, 2014 yili 24 mlrd.m³ gazni uzatish imkonini beruvchi Markaziy Osiyo-Xitoy gaz quvurining 1 ming 830 kilometr uzunlikdagi uchunchi tarmog'i ishga tushdi.²¹

O'zbekistonda ko'mirning umumiy zaxiralari 2 mlrd.tonnaga teng. Hozirda 20 ga yaqin joyda ko'mir borligi ma'lum. Agar hozirgi darajada ko'mir qazib chiqarish davom etsa, mavjud zaxiralar 120 yilga yetadi. Istiqbolli ko'mir zaxiralari Surxondaryo viloyatida mavjud.

Hozirgi kunda mamlakatimiz energiya tizimidagi 39 ta elektr stansiyasida 55 milliard kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarilmoqda. Yillik ishlab chiqariladigan elektr energiyasining 85 foizdan ziyodi tabiiy yoqilg'ilar (tabiiy gaz, toshko'mir va mazut) - birlamchi energiya resursi sifatida qo'llaniladigan issiqlik elektr stansiyalarining hissasiga to'g'ri keladi. Elektr uzatuvchi simlarning uzunligi esa 230 ming kilometrdan ortadi. Oxirgi 20 yilda respublikamizda elektr energiyasini ishlab chiqarish 3 barobar oshdi. Mamlakat iqtisodiyotini to'liq elektr energiyasi bilan ta'minlashdan tashqari uni qo'shni davlatlarga eksport qilish imkoniyati ham yuzaga keldi.²²

Islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida elektr energiyasini ishlab chiqarish, uni uzatish va iste'molchilarga sotish samaradorligini

²⁰ www.uza.uz/ O'zbekistonda neft-gaz sanoati jadal rivojlanmoqda

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi; 15.01.2015


²² www.qashqadaryo.uz/ Qashqadaryo viloyat hokimligi rasmiy sayti

yanada oshirish, tannarxini pasaytirishga alohida e'tibor qaratildi. O'z navbatida mamlakatimizda energetika tizimida ishlab chiqarishni modernizasiya qilish va yangilashga qaratilgan qator strategik loyihalar amalga oshirildi.

Xususan, 2012 yilda qurilishi tugallangan Navoiy issiqlik elektr stansiyasida quvvati 478 MVt bo'lgan bug'-gaz qurilmasining amaliyotga tatbiq etilishi natijasida elektr energiyasi ishlab chiqarishda shartli yoqilg'i sarfini 1,8 marta kamaytirishga, har yili 400 million kubometr tabiiy gazning tejallishiga erishiladi. Talimarjon issiqlik elektr stansiyasida ham quvvati 900 MVt bo'lgan bug'-gaz qurilmalarini loyihalash ishlari strategik ahamiyatga ega bo'lib, asosan tabiiy energiya resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan.²³

4 diagramma

O'zbekistonda elektr energiyasining sohalar bo'yicha iste'moli (2013)²⁴:



Diagrammadan ko'rishimiz mumkinki O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan elektroeneriyaning 38 foizi aholi iste'moliga sarf etilayotgan bo'lsa, 36 foizi qishloq xo'jaligiga sarf etilmoqda.

MDH mamlakatlari jahon yoqilg'i-energetika kompleksining muhim bir tarmog'i sifatida, neft va gaz, ko'mir eksportida yuqori o'rinlarni egallaydi. Ayniqsa, Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston va Ozarbayjonning yoqilg'i-energetika sanoati potentsiali yuqori baholanadi. Moldova MDH

²³ Л. Исаева, О.Ахмедов, М. Асимова-“Пути совершенствования энергобаланса Узбекистана”. Иктисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, апрель, 2013 йил

²⁴ Н.М. Умаров “Узбекистан на пути к устойчивому развитию”. 2013г.

mamlakatlari ichida eng kam yoqilg'i-energetika resurslariga ega bo'lgan mamlakat hisoblanib, u hozirda yoqilg'i mahsulotlarining asosiy qismini Rossiya va Ukrainadan, elektroenergetika mahsulotlarini Sharqiy va Markaziy Yevropa mamlakatlaridan import qilmoqda.

1.2. MDH mamlakatlarning jahon neft bozoridagi o`rni

Jahon neft bozori atamasi ostida biz anʼanaviy tarzda yagona strukturani nazarda tutamiz. Ammo, chuqur tahlil shuni koʻrsatadiki, ushbu bozor umumiy ahamiyat kasb etmaydi hamda oʻzining mintaqaviy xususiyatlariga ega. Masalan, Shimoliy Amerika, Yevropa, MDH va Osiyo-Tinch Okeani mintaqalari neft bozorining asosiy isteʼmolchilari hisoblanishadi. Shu bilan bir qatorda, oʻz resurslari bilan 41% va 56% taʼminlangan Osiyo-Tinch Okeani mintaqasi va Shimoliy Amerika bozorlari eng beqaror hisoblanadi. Soʻnggi oʻn yillikda aynan ushbu mintaqalar bozoridagi oʻzgarishlar neft narxining keskin oʻzgarishiga sabab boʻlgan.²⁵

Xalqaro miqyosdagi eng asosiy neft eksportyori bu Saudiya Arabistoni boshchiligida OPEC (Organization of Petroleum Exporting Countries) ga kiruvchi Yaqin Sharq mamlakatlari hisoblanadi.

Yetkazib berish usullari hamda narx shakllantirish metodlariga koʻra jahon neft bozori uchta sektorga boʻlinadi:

- *Neft qazib oluvchi davlatlarning ichki bozori.* Neft ishlab chiqaruvchi mamlakatlarning oʻz ichki bozorlariga yetkazib beradigan neft miqdorining umumiy summasi bir yilda oʻrtacha hisobda 1,6 milliard tonnaga teng.²⁶ Ushbu davlatlar ichki bozoridagi neft bahosi xalqaro maydondagi neft bahosidan koʻp hollarda keskin farq qiladi hamda asosan hukumat tomonidan mamlakat neft sanoati sohasining toʻliq faoliyatini taʼminlash va milliy iqtisodiyot rivojlanishiga zamin yaratish maqsadida nazorat qilinadi. Shu bois ham Tashqi neft narx-navosi kam hollardagina neft ishlab chiqaruvchi davlatlar ichki neft bahosiga taʼsir qila oladi;

- *Quvur tizimlari orqali neftning eksport va importi.* Quvurlar orqali bir yilda oʻrta hisobda 200 million tonna neft eksport qilinadi. Bugungi kunda dunyodagi eng yirik xalqaro va mintaqalararo neft quvurlari tizimi bu- Mustaqil Davlatlar hamdoʻstligini bogʻlovchi “Transneft”, Kanada va AQShni bogʻlovchi quvur

²⁵ Ю.К. Шафраник, «Нефть-это испытание» Журнал «ТЭК России», №8, 2013 г., стр. 24

²⁶ www.ereport.ru/statistics

tizimlari. Shuningdek, hozirda Rossiya bilan Yevropani birlashtiruvchi “Janubiy”, Rossiya va Xitoyni birlashtiruvchi quvur tizimini qurish ishlari amalga oshirilmoqda. Quvur orqali neft yetkazib berish sektorini odatda “bogʻlangan bozor” deya atashadi: unda eksport-import hajmi doimo bir yil oldin kelishib olinadi;²⁷

- *Neftning dengiz orqali eksport va importi.* Jahon bozorida neft narxi asosan tanker sektori orqali aniqlanadi. Tankerlar orqali yillik neft savdosi oʻrta hisobda 1,6 milliard tonnani tashkil qiladi va shulardan 1,1 millirad tonnasi, yoki 69% OPEC tomonidan amalga oshiriladi. Shuning uchun ham OPEC jahonda neft eksporti sohasida yetakchilik qilmoqda. Ammo quvurlar orqali neft yetkazib berishdan farqli ravishda tankerlar sektorining asosiy kamchiligi unda neft eksport-import hajmi oldindan kelishib olinmaydi va narx-navo ham isteʼmolchilar soniga qarab emas, balki koʻp hollarda OPEC davlatlari kelishuviga koʻra oʻrnatiladi.

Dunyoda faqatgina olti mamlakat 10 milliard tonnadan ortiq neft zahiralariga ega hisoblanadi. Bular quyidagilar:

6-jadval

10 mlrd tonnadan ortiq neft zahiralariga ega boʻlgan mamlakatlar (mlrd tonna)²⁸:

Saudiya Arabistoni	Iroq	BAA	Quvayt	Eron	Rossiya	Venesuela
43.18	18.7	15.98	15.81	15.47	11,9	11

Agarda 2013-yil statistikasiga nazar tashlasak, ushbu yil neft qazib oluvchi mamlakatlar uchun omadli keldi deyish mumkin. Neft bozorida ushbu yilda asosan narxlarning ijobiy dinamikasi bilan xarakterlandi.

²⁷ www.ereport.ru/statistics

²⁸ Аналитический бюллетень «Нефтегазодобывающая и нефтеперерабатывающая промышленность: тенденции и прогнозы», выпуск №1, итоги 2012 года, изд. «РИА-Аналитика»-Центр экономических исследований, М.: 2013, стр.7

2013 yilda bir barrel neftning bahosi 70-80 AQSh dollarini tashkil qildi. Bu ko'rsatkich esa nafaqat neft ekporti bilan shug'ullanuvchi mamlakatlarni, balki iste'molchi davlatlarning manfaatlariga ham to'liq mos keldideyish mumkin: neft bahosining ushbu qiymati neft qazib oluvchi mamlakatlarning kerakli darajadagi investitsion salohiyatini ushlab turishga imkon yaratgan holda, importyorlar uchun ham qimmat hisoblanmadi. 2013-yilning 10 oyida neft bahosi faqatgina uch marotaba - fevral va may oylarida "o'rta" daraja koridoridan chiqdi va bunda faqatgina narx ko'tarilishi kuzatildi. May oyida neft bahosining ko'tarilishiga bosh sabab Meksika bog'ozidagi 2010-yildagi kabi yana favqulotda holat yuz berish, mintaqadagi shelflarda neft qazib olishning qiyinlashuvi bo'ldi. Ushbu voqeadan so'ng ko'plab mutaxassislarning bir barrel neft bahosining 100 AQSh dollarigacha ko'tarilishini bashorat qilganiga qaramasdan, iyun oyidan boshlab neftning qimmatlashuvi emas, balki uning narxining tushishi kuzatildi. 2013-yilning o'n oyligi statistik ma'lumotlariga ko'ra, bir barrel neft bahosining eng past ko'rsatkichi-67,18 AQSh dollarini eng baland ko'rsatkichi- 93,70 AQSh dollarini (24-may) tashkil etdi²⁹.

2014 yilda esa neftning o'rtacha narxi 96 AQSH dollarini tashkil etdi. 2015 yilning yanvar oyida "qora oltin" narxi 56 dan 48 dollargacha tushib ketdi. Jahon Banki prezintenig ta'kidlashicha Brent markali neft bahosi so'nggi yarim yilda 110 dollardan 50 dollarga tushgan bo'lsa, 2015 il neftning o'rtacha bahosi 60 dollar atrofida bo'lishi prognozlashtirilmoqda. 2015 yil o'rtalariga kelib neft bahosining bir oz oshishi bashorati Rossiya, Nigeriya, Venesuela, Kolumbiya kabi davlatlar uchun o'rinli bo'lsa, Indoneziya va Hindiston neftning past narxdaligidan katta foyda ko'rmoqdalar.³⁰

Shunday qilib, jahon neft bozori yagona tizim hisoblansa-da undagi jarayonlar ko'p hollarda asosiy ikkita tizimosti qismlar o'rtasidagi jarayonlar bilan xarakterlanadi: quvurlararo neft yetkazib berish-MDH, dengiz orqali neft savdosi-Amerika, Yaqin Sharq va Osiyo-Tinch Okeani mintaqasi. Shu o'rinda, Mustaqil

²⁹ Ma'lumotlar to'liq matni <http://shafranik.ru/publikatsii/energetika-i-geopolitika> manbasida mavjud

³⁰ www.rgu.ru/ Всемирный Банк:Средняя цена нефти в 2015 году составит 60 долларов

Davlatlar Hamdo'stligining jahon neft bozoridagi ishtirokini tahlil qilish bizga uning asosiy savdo texnologiyasi- quvurlar orqali tizimini deyarli to'liq o'rganishimizga zamin yaratadi.

MDH mamlakatlarining xalqaro neft bozoridagi ulushi. Neft sanoati nafaqat uni qazib oluvchi va ishlab chiqaruvchi mamlakat uchun balki, qolgan mamlakatlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, taklifni talab yuzaga keltirishini hisobga olsak, neft mahsulotlari savdosiga uni eksport qiluvchi mamlakatlardan-da uni import qiluvchi mamlakatlar ko'proq manfaatdor hisoblanadilar. Zero, neft energiya manbai sifatida butun milliy iqtisodiy komplekslarning samarali faoliyatining birlamchi resursidir.

MDH mamlakatlari orasida Rossiya Federatsiyasi asosiy neft resurslariga ega va uni qazib olish hamda eksport qilish bo'yicha ham yetakchi hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasining neft zahiralari 11 mlrd.dan ortiq hisoblanadi.³¹

2013-yil ma'lumotlariga ko'ra, MDH mamlakatlaridan Armaniston, Qirg'iziston, Tojikiston neft zahiralari bor yo'gi 16 million tonna atrofida bo'lsa, Moldova deyarli neft zahiralari ega emas. Qolgan mamlakatlarning neft zahiralari ko'rsatkichlarini esa quyidagi jadvalda o'z aksini topgan:

7-jadval

Ba'zi MDH mamlakatlarining neft zahiralari (mln.tonnada)³²:

Qozog'iston ³³	Ozərbayjon	Turkmaniston	O'zbekiston
3900	460	264	253

MDH mamlakatlari o'rtasida Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston va Ozarbayjon o'z ichki bozorini to'liq, O'zbekiston va Turkmaniston esa qisman o'z zahiralari hisobiga ta'minlay olish xususiyatiga ega.

Ko'rinib turibdiki Rossiya Federatsiyasidan boshqa hech qaysi mamlakat milliard tonnadan ko'p neft zahiralari ega emas. Shuning uchun ham, MDH doirasida va uning ishtirokida amalga oshirilayotgan neft savdosining deyarli

³¹ www.ved.gov.ru/Россия-показатели нефтяной промышленности


³² Крамчикина М.Л. «Место и роль стран СНГ в мировом хозяйстве», Омск:2013, стр.104

³³ www.e-cis.info/Информационно-аналитические материалы "О состоянии и развитии минерально-сырьевой базы государств – участников СНГ (2014 год)"

uchdan ikki qismini Rossiya Federatsiyasi ishtirokidagi operatsiyalar tashkil etadi. Rossiya federatsiyasida neft sanoatining tez sur`atlarda rivojlanishi o`tgan asrning so`nngi yigirma yilligiga, ya`ni 1972-1989 yillarga to`gri keladi. Sovet Ittifoqining parchalanishi Federatsiya iqtisodiyotining boshqa sohalarida kabi, neft qazib olish sektoriga ham o`z ta`sirini o`tkazmay qolmadi: mamlakatning neft zahiralari ko`ra uchinchi o`rinda turuvchi mintaqasi- Kaspiy bo`yi shelfini Rossiya endilikda faqatgina Eron bilan emas, balki Ozarbayjon, Turkmaniston va Qozog`iston bilan ham bo`lishishiga tog`ri keldi. Ammo bu Rossiya neft sanoatining umumiy holatiga katta salbiy ta`sir qildi deyish noto`gri. Statistik ma`lumotlar shuni ko`rsatadiki, sovet tuzumiga qaraganda Rossiyaning neft eksporti o`tgan asrning 90-yillarida 2,5 marta, 2005-yilda 3 marta va 2013-yilda esa 3,8 marta oshgan.

6-chizma

RF neft-kimyoy komplekslarining mamlakat mintaqalari bo`yicha taqsimlanishi³⁴:



Neft qazib olish bo`yicha Rossiya jahonda Saudiya Arabistoni va Amerika Qo`shma Shtatlaridan keyin uchunchi o`rinda turadi. Rossiya bir necha katta neft-


³⁴ Аналитический бюллетень «Нефтегазодобывающая и нефтеперерабатывающая промышленность: тенденции и прогнозы», выпуск №1, итоги 2012 года, изд. «РИА-Аналитика»-Центр экономических исследований, М.: 2013, стр.32

kimyo komplekslariga ega bo`lib, ular mamlakatning turli mintaqalari bo`yicha quyidagicha taqsimlangan (6-chizma).

Biroq, Rossiya neft sanoatining eng katta muammosi shundan iboratki, mamlakatning asosiy neft zahiralarini noqulay joylashgan bo`lib, ularni qazib olish va iste`molchiga qadar yetkazish juda ham qimmat hisoblanadi. Shuning uchun ham, Rossiya federatsiya oldida turgan asosiy vazifalardan biri, bu mamlakatning Yevropa qismida joylashgan hududlarida neft zahiralarini qidirib topish hisoblanadi. 2013-yilning noyabr oyida Serbiya orqali Yevropaga o`tuvchi “Janubiy” quvur tizmining qisman ishga tushirilganligi va bu quvurning Rossiyaning Yevropaga yaqin Tatariston, Volga bo`yi, Samara viloyatlaridagi neft zahiralarini yetkazib berishga asoslanganligi, Rossiyaning ushbu yo`nalishda rivojlanishni boshlab yuborganidan dalolat beradi. Agarda, Rossiya yalpi ichki mahsulotining deyarli uchdan bir qismi neft va energetika mahsulotlari eksportidan kelayotgan foydaga asoslanganligini hisobga olsak, RFning neft savdosiga qaratayotgan yuqori e`tibori tabiiy bir hol ekanligi anglash qiyin emas.

5-diagramma

Rossiya neftining mintaqalar bo`yicha eksporti (2010-2014 yillar):



Manba: KBC Advanced Technologies

Rossiya Federatsiyasining qazib olish va ishlab chiqarish mumkin bo`lgan neft zahiralarini hozirgi templarda ellik yilga yetishi bashorat qilindi. Ammo mamlakatning Uzoq Sharq va Sibirdagi zahiralarini to`liq hajmi aniq emas.

8- jadvaldan shuni ko`rishimiz mumkinki, O`zbekistondan boshqa barcha MDH mamlakatlarida neft qazib olish hajmi so`nggi yigirma besh yil ichida qisqargan. Ammo neft qazib olish ko`rsatkichlari dinamikasi doim ham neft eksporti dinamikasi bilan bir xil kechmasligi mumkin. Buni Rossiya misolida ko`rsak, mamlakat neft qazib olish hajmi haqiqatdanda pastlagan ammo, neft eksporti esa aksincha so`nggi yigirma besh yil davomida deyarli to`rt barobar oshgan. O`zbekistonda esa neft qazib olish bilan bir qatorda uning eksport hajmi ham oshgan: so`nggi 25 yilda O`zbekiston neft eksport hajmi 3,2 marta ko`paydi.³⁵

Dunyodagi yirik “Tomson Reyter” biznes-axborot agentligining moliya sohasidagi mashhur “Project Finance International” jurnali Ustyurt gaz-kimyo kompleksi loyihasining noyobligi va ishga novatorlik bila yondashish natijasi ekanini qayd etib, Ustyurt gaz-kimyo kompleksi qurilishini neft-gazkimyo sanoatidagi yilning eng yaxshi loyihasi, deb tan oldi.³⁶

8-jadval

MDH mamlakatlarining neft qazib olish bo`yich ko`rstakichlari dinamikasini (million tonnada)³⁷:

	1985	1995	1998	2000	2002	2006	2009	2013
Ozarbayjon	13.2	12.5	11.7	11.1	10.3	9.6	9.2	9.1
Belarussiya	2.0	2.1	2.0	2.0	2.0	2.0	1.9	1.9
Gruziya	1.0	0.2	0.2	0.1	0.1	0.07	0.04	0.1
Qozog`iston	22.8	25.8	22.6	25.8	23.0	20.3	20.5	23.0
Qirg`iziston	0.2	0.2	0.1	0.1	0.1	0.1	0.1	0.1
Rossiya	542.0	516	462	399	354	318	307	301
Tojikiston	0.4	0.1	0.1	0.06	0.04	0.03	0.03	0.03
Turkmaniston	6.0	5.7	5.4	5.2	4.9	4.4	4.7	4.4
O`zbekiston	2.0	2.8	2.8	3.3	3.9	5.5	7.6	7.6
Ukraina	5.9	5.3	4.9	4.5	4.2	4.2	4.1	4.1

Qozog`iston Respublikasi mintaqadagi neft zahiralari va eksporti bo`yicha ikkinchi mamlakat bo`lib, u 2050-yilga qadar o`z oldiga dunyoning asosiy 30-ta neft qazib oluvchi mamlakatlaridan biriga aylanishni maqsad qilib qo`ygan.

³⁵ Ю.К. Шафраник: “Энергетика в СНГ: вчера, сегодня, завтра”Федеральный Справочник «Топливо-энергетический комплекс СНГ», выпуск 13, 2013 г

³⁶ I.Karimov. Bosh maqsadimiz- keng ko`lamli islohotlar va modernizatsiya yo`lini qat`iyat bilan davom ettirish. T.: O`zbekistin, 2013; 11-12 b.

³⁷ Ю.К. Шафраник: “Энергетика в СНГ: вчера, сегодня, завтра”Федеральный Справочник «Топливо-энергетический комплекс СНГ», выпуск 13, 2013 г., стр 18

Qozog'iston Respublikasining asosiy neft zahirasi Kaspiy dengizi mintaqasida joylashgan. Kaspiy dengizi mintaqasi neft zahiralariga egalik huquqi Ozarbayjon va Turkmanistonga ham jahon neft bozoriga kirib borishga imkon yaratadi.

Shu bilan bir qatorda, Ozarbayjon nafaqat neft qazib olish sanoatini rivojlantirishga katta ahamiyat bermoqda, balki o'z hududi orqali Kaspi dengizida qazib olingan Qozog'iston neftini Yevropaga tranzit sifatida eksport qilinishi ham yoqlab chiqmoqda.

Endi esa MDH umumiy struktura sifatidagi jahon va ichki neft bozoridagi ulushini ko'rib chiqsak:

9-jadval

MDH ning jahon va ichki neft bozoridagi ulushi (mln.tonnada)³⁸:

Eksport hajmi	1990	1998	2004	2009	2013
Neft hom ashyosining MDH doirasidan tashqariga eksporti	209.0	347.8	296.2	405.4	310.1
Neft mahsulotlarining MDH doirasidan tashqariga eksporti	53.5	63.3	68.6	143.0	89.7
Neft hom ashyosining MDH ichidagi eksporti	26.1	24.6	20.6	7.9	6.1
Neft mahsulotlarining MDH ichidagi eksporti	3.0	8.8	9.0	10.2	12.6

Ushbu jadval, MDH ning umumiy neft eksporti hajmi dinamikasiga bag'ishlangan bo'lib, unda MDH mamlakatlarining tashkilotdan tashqariga va tashkilot doirasida amalaga oshirgan eksport operatsiyalari umumiy qiymati keltirilgan.

³⁸ Ю.К. Шафраник: “Энергетика в СНГ: вчера, сегодня, завтра”Федеральный Справочник «Топливо-энергетический комплекс СНГ», выпуск 13, 2013 г., стр 31

2013- yilda Belorussiyada neft qazib olish 1,9 million tonnani tashkil etdi. Bu oldingi yillarga qaraganda 25 foizga kam degani. Ammo mamlakat hukumatining o'zi neft qazib olishni va uni eksport qilish hajmini kamaytirish siyosatini olib bormoqda. Bunga asosiy sabab malakatga import qilinuvchi Qozog'iston va Rossiya neft mahsulotlari Belorussiyada qazib olinuvchi neft mahsulotlariga qaraganda arzon hisoblanadi. Chunki Belorus neft zahirolari noqulay manzilgohlarda joylashgan va uni yuzaga chiqarish va kerakli joyga yetkazish ko'p chiqim talab etadi. Belorussiya neft markasi deyarli ko'pchilik MDH mamlakatlaridagi kabi “Дружба” (do'stlik) hisoblanadi va u sifati bo'yicha Brent va Arabia neft markalaridan keyin jahonda sifati bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. “Дружба” markali neftning o'ziga xos xususiyati, unga Brent neftidan farqli o'laroq, tashqi bosim kam ta'sir ko'rsatadi, ammo smolalashuv jarayoni tezroq kechgani bois, undan sifati pastroqdir. Belorussiya neftining asosiy haridori Ukraina hisoblanadi.³⁹

So'nggi yillarda OPEC tizimiga kiruvchi neft ekportyorlari va iste'molchilari o'rtasidagi ba'zi moliyaviy kelishmovchiliklar, Meksika ko'rfazi va Karib dengizida sodir bo'lgan neft tenkerlarining avariya uchrash oqibatida jahon hamjamiyati yana o'z e'tiborini neft savdosining an'anaviy usuli- quvurlar orqali tashib o'tishga e'tibor qaratishmoqda. To'g'ri, ushbu neft “transport” suv kemalari va tankerlardan farqli o'laroq murakkab, qurish uchun ko'p yilni talab etadigan, asosiysi qimmat va qaysidir jihatda cheklangan imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, u xavfsizlik jihatdan ancha ustun hisoblanadi. Neft quvurlari orqali tankerlarga nisbatan kattaroq hajmda neft yetkazib berish mumkin. Ammo quvurlarni faqatgina bir mintaqa yoki geografik jihatdan qo'shni hududlarda o'tkazish mumkin, mintaqalararo quvurlar yotqizish mushkul ish. Misol uchun Janubiy Amerika va MDH ni birlashtiruvchi neft quvuri amalga oshirib bo'lmaydigan ish hisoblanadi. Shu bois, ham MDH ning jahon neft bozoridagi ulushi cheklanganligicha qolmoqda.

³⁹ Belorussiya neft sanoatiga doir ma'lumotlar quyidagi manbadan olindi: www.ved.gov.ru/Belorussiya-neftyanaya-promishlennost/obshei-svedeniya

Ammo, shunga qaramasdan, MDH o'z mavjud salohiyatidan samarali va pragmatik ravishda foydalansa, yangi imkoniyatlar eshigini ochgan bo'ladi. Xususan, 2014 Parij shahrida o'tkazilgan IX Xalqaro Neft va Gaz Sammitida 2020 yilga kelib, MDH mamlakatlarining jahon bozoriga neft eksporti hajmi 1,5 barobar oshishi bashorat qilindi.⁴⁰

Umuman olganda neft sanoatining MDH da rivojlanishi bu faqat neft qazib olish va eksport-import hajmiga bog'liq hodisa emas. Neft sanoatini rivojlantirish uchun har qanday mamlakat avvalo o'z ilmiy salohiyatini, kadrlar tizimini, logistika va transport sohasini, hududlar infratuzilmalarini rivojlantirishi kerak bo'ladi. Bunday o'zgarishlar esa o'z navbatida mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy salohiyati oshishiga, yashash darajasining yaxshilanishiga olib keladi.

Ammo, iqtisodiyotning ko'p jihatdan siyosat bilan bog'liqligi xalqaro neft bozorida bo'lgani kabi MDH dagi neft savdosiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Mintaqadagi Rossiya gegemoniyasi neft sanoati sohasida ham kuzatilmoqda. Bu nafaqat Rossiy zahiralarining va uning iqtisodiy salohiyati bilan bog'liq. Rossiya ishtirokisiz neft savdosi va boshqa strategik loyihalar deyarli doim Rossiyaning aralashuvi bilan tugamoqda. Buning asosiy sababi, neft- bu siyosiy richag. Bir so'z bilan aytganda, MDH ko'pgina davlatlari neft bozoriga chiqish uchun Rossiya bosimi bilan kurashishiga to'g'ri kelmoqda. Fikrimizcha, mintaqaning jahon neft bozoridagi ishtirokini oshishi uchun MDH doirasida xolis teng huquqli munosabatlar o'rnatilishi zarur.

2. MDH mamlakatlarida yoqilg'i-energetika sanoati rivojlanish dinamikasi

2.1. MDH mamlakatlarida yoqilg'i-energetika sanoati muammolari

⁴⁰ www.Today.Kz/Экономика/Финансы

So`nggi yillarda jahon xo`jaligida tabiiy resurslarni qazib olish, qayta ishlash, eksport va import qilish bilan bog`liq ko`plab muammolar yuzaga kelmoqda. Eng asosiysi bu muammolar nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy omillarga ham bog`liq bo`lib qolmoqda.

MDH mamlakatlarida yoqilg`i-energetika sanoati sohasida yuzaga kelayotgan muammolarning eng asosiylari aniqlangan yoqilg`i-energetika resurslari zaxiralarining allaqachon iste`mol qilinayotgani, mavjud zaxiralar sifatining yomonlashayotgani, yangi aniqlangan zahiralarining noqulay joylarda joylashgani va qazib chiqarish xarajatlarining yuqoriligi, hom-ashyo zaxiralarini topish bilan bog`liq geologik qidiruv ishlarining samarasiz olib borilayotgani va MDH tarkibiga kiruvchi Rossiyaga nisbatan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSH tomonidan qo`yilgan sanksiyalar bilan xarakterlanadi.

MDH yoqilg`i-energetika sanoatida yuz berayotgan bu kabi muammolarning asosiy sabablari quyidagilar hisoblanadi:

- Zamonaviy texnologiyalarning yetishmasligi;
- Geologik qidiruv ishlarining sustligi va zahiralarni aniqlashga katta mablag` talab etilishi;
- MDH mamlakatlari geologik qidiruv xizmatlari hamkorligining sustligi;
- Yuqori malakali kadrlarning yetishmasligi;
- Xorijiy mamlakatlar strategik mineral xom-ashyo resurslari to`g`risida yetarlicha axborotga ega emaslik va boshqalar.⁴¹

Armanistonda yoqilg`i-energetika sanoati bilan bog`liq bo`lgan eng asosiy muammo shundan iboratki, mamlakatda deyarli neft, tabiiy gaz zaxiralari mavjud emas hamda energiya mahsulotlarining deyarli 100 foizini import qiladi (neftni Rossiya, Gruziya, Erondan, gazni Eron va Rossiyadan).

Mamlakat elektroenergetika tizimi Sovet vaqtida barpo etilgan bo`lib, Trans-Kavkaz tarmog`ining bir qismi hisoblanadi va mustaqil tizim hisoblanmaydi. Yoqilg`i-energetika sohasida ishlatilayotgan uskunalarning katta qismi eskirgan va

⁴¹ www.e-cis.info/Информационно-аналитические материалы “О состоянии и развитии минерально-сырьевой базы государств – участников СНГ (2014 год)”

modernizatsiya qilinishi lozim. Ushbu uskunalarning 38 foizi 30 yildan beri ishlatilayotgan bo'lsa, GES lardagi uskunalarning 70 foizi 30 yildan beri, aniqroq qilib aytganda 50 foizdan ortig'i 40 yildan beri ishlatilmoqda. Mamlaktdagi AES xalqaro ekspertlar tomonidan xavfsiz deb topilganiga qaramasdan, mamlakatda u 2016 yilga qadar faoliyat olib borishi reja qilingan. Shuningdek, Sevan-Hrazdandagi faoliyat ekologik muammolarga, Sevan ko'li suv hajmining kamayishiga sabab bo'layotgani tufayli ishlab chiqarilayotgan elektroenergiya miqdori hajmi kamaytirildi.

Ozərbayjonda yoqilg'i-energetika sanoati muammolaridan biri, mamlakatda gaz qazib chiqarish hajmi o'sishi bilan ya'ni gazni eksport qilish uchun yangi bozorlarni qidirish bilan bog'liqdir. 2012 yili qurilishni boshlagan "Nabukko" gaz quvirlarining eng asosiy foydalanuvchilaridan biri Ozarbayjon hisoblandi. Dastavval, "Nabukko" orqali Ozarbayjon va Turkmaniston Yevropa mamlakatlariga gaz yetkazib berishi rejalashtirilgan edi. Ammo, bundan bir necha yil avval Turkmanistonning gaz potentsiali notog'ri prognoz qilingani aniqlangandan so'ng "Nabukko" gaz quvirlarining samarali faoliyat olib borishi shubxa ostida qoldi. Mutaxassislar fikricha agar mamlakatda neft qazib chiqarish hajmi shu tempda davom ettirilsa, 2025 yilga kelib mamlakat yiliga 8 mln.tonnadan ortiq neft qazib chiqara olmaydigan darajaga kelib qoladi. Bu esa faqatgina ichki talabni qondirishga yetishi va mamlakat iqtisodiyoti uchun katta moliyaviy zarar keltirishi mumkin.

Yoqilg'i sanoatining boshqa bir yirik muammosi- neftni qayta ishlash bazasining past rivojlanganligidir. Hozirgi kunda neft mahsulotlari Bakudagi umumiy quvvati 20-22 mln.t. neftni qayta ishlashga mo'ljallangan ikta neftni qayta ishlash zavodlarida ishlab chiqariladi. Ushbu zavodlarda qayta ishlangan mahsulot sifati Yevropada allaqachon rad etilgan euro-2 standartiga to'g'ri keladi.⁴²

Belorussiya boy yoqilg'i-energetika resurslariga ega bo'lmaganligi sababli, o'z talabining deyarli 85 foizni import orqali qondiradi. U esa mamlakatning tashqi eksportyorlarga ko'p jihatdan bog'liq bo'lib qolishiga olib keladi. Mamlakat

⁴² www.fineco/abc.az/ Проблемы топливно-энергетического комплекса Азербайджана

hududida ikkilamchi yoqilg'i resurslari- yonuvchan slans (11 mlrd.t atrofida), torfning yetarli zahiralari aniqlagan bo'lishiga qaramasdan, ularni qazib olish bilan bog'liq ko'plab muammolar mavjud. Birinchidan, yonuvchan slansdan an'anaviy uskunalar orqali energo mahsulotlar olish juda katta xarajatlarni ta'lab etadi va slans qazib olingan hududda ekologiyaga katta zarar keltiruvchi o'ralar hosil bo'ladi.⁴³

Qozog'istonda so'nggi yillarda umuman barcha turdagi yoqilg'i-energetika mahsulotlarini qazib chiqarish va qayta ishlash hajmi qisqarib bormoqda. Hozirda mamlakatda yiliga 30 mln. tonna atrofida neft qazib chiqarilsada, milliy ishlab chiqarish orqali avtomobil binzeni talabining atigi 30 foizi, reaktiv yo'qilg'ining 20 foizi, dizel yoqilg'isiga bo'lgan talabning 40 foizi, mazutga bo'lgan talabning 50 foizi qondirilmoqda. Buning asosiy sababi so'nggi yillarda mamlakat neftni qayta ishlovchi zavodlariga xom neftning yetarli yetkazib berilmayotganidir.⁴⁴

Qirg'izistonda ishlab chiqarilayotgan energiyaning asosiy qismi GES larda ishlab chiqariladi. Bu holat mamlakat energetik xavfsizligiga yetarli tahdid solishining asosiy sababi shundaki, GES larda energiya ishlab chiqarish hajmi tabiiy iqlim sharoitlariga va yilning suvga boy kelganligiga bog'liqdir.⁴⁵

Rossiyada yoqilg'i-eneretika sonoatining muammolaridan biri tog'-geologik va tabiiy-iqlim sharoitlarining yomonlashgani hisoblanadi. Yoqilg'i qazib olinuvchi an'anaviy hududlar (G'arbiy Sibir, Shimoliy Kavkaz, Ural-Povoljye) da zaxiralar hajmining kamayishi, yoqilg'i topilgan yangi hududlarningning qisqarayotgani, hududlar geologik tuzilishining o'zgarayotgani, plast bosimning pasayayotgani kabi muammolar ko'zga tashlanmoqda. So'nggi ellik yil ichida aniqlangan neft zaxiralari Rossiyaning neft qazib chiqarish sanoatining barqaror rivoji uchun yetarli bo'lmasligi va natijada mamlakatda neft qazib chiqarish hajmi qisqarishi mumkin.⁴⁶

⁴³ www.newtemper.com/Топливо-энергетический комплекс Республики Беларусь

⁴⁴ www.articlez.com/ Анализ нефтегазового комплекса Республики Казахстан и его диверсификация

⁴⁵ www.led-ca.net/ Энергоэффективность в Киргизии

⁴⁶ www.burnrft.ru/ Основные проблемы инновационного развития нефтегазовой отрасли в области добычи нефти и газа

Rossiyada soha rivoji bilan bog`liq muammolarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- Mamlakat hududining juda kattaligi sababli energo-resurslarni yetkazib berish katta mablag` talab etadi va bu holat resurslar raqobatbardoshligi darajasini pasaytiradi;
- Aholi sonining qisqarib borayotgani sababli, mamlakat janubiy hududlarida joylashan ko`mir sanoat markazlari katta zarar ko`rishi mumkin;
- Mamlakat iqtisodiyotining energiya mahsulotlari eksportiga qattiq bog`liqligi;
- Sohada ishlatilayotgan texnikalar (elektroenergetika sohasidagi 50 foiz texnika va uskunalar o`z muddatidan ortiq ishlatilmoqda) ning eskirgani va modernizatsiyalash jarayoni sekin amalga oshirilayotgani;
- Sovuq iqlim kuz-qish-baxor mavsumida energiyaning kop sarf etilishi va issiqlik tizimining samarali ishlashi uchun katta hajmdagi mablag` sarf etilishini talab etmoqda;
- Energiya tashuvchi uskunalarning qimmatligi va boshqalar.⁴⁷

2014 yilning so`nggi 8 oyi natijalariga ko`ra Rossiya 1079688298,5 barrel neft eksport qildi va bu ko`rsatkich o`tgan yilga nisbatan 4,12 foiz kamdir. Neft sotishdan keladigan foyda esa 2,7 foizga qisqarib \$ 109 mlrd. 835 mln.ni tashkil etdi. Bir barrel neftning bahosi 1 AQSH dollarga tushsa, bu holat Rossiyaning yillik umumiy foydasini \$1,6 mlrd.ga kamaytiradi. Bugungi kunga kelib, Rossiya 1 barrel neft narxi tushishidan 10,5 mlr.dollar yo`qotmoqda. Bunday vaziyat vujudga kelishiga hozirgi kunda Rossiya va Ukraina o`rtasidagi muammolarga nisbatan Yevropa davlatlari va AQSH ning munosabati sabab bo`lmoqda. Agar vaziyat shunday davom etsa Rossiya byudjeti katta zarar ko`rishi mumkin.⁴⁸

⁴⁷ Ю.В. Синяк, [А.С. Некрасов], С.А. Воронина, В.В. Семикашев, А.Ю. Колпаков - "Топливо-энергетический комплекс России: Возможности и перспективы", 2013

⁴⁸ www.itar-tass.com/ekonomika/1491613

2014 yilning sentabrda boshlab Rossiya Yevropa mamlakatlariga Nord Stream, Yamal-Yevropa yo`laklari va Ukraina tranziti orqali gaz eksport qilishni qisqartirgan edi. Bu orqali Rossiya Yevropani gaz bilan bog`liq muammoga duch etish hamda gaz bozorida gazning narxini ko`tamoqchi, Ukrainaning reversdan oladigan foydasini kamaytirmoqchi edi. Ammo, bu reja o`z natijasini bermadi va xalqaro gaz bozorida gazning narxi sezilarli ravishda o`zgarmadi va Ukraina hozirda gazni revers bo`yicha \$245 dan sotib olmoqda. Shu tufayli 2015 yilning mart oyiga kelib Rossiya Yevropaga gaz eksport qilishni yana qayta tikladi. Ukraina tranziti orqali gaz eksport qilish 40 foizga, Nord Stream orqali kunlik gaz uzatish deyarli ikki barobarga, Yamal-Yevropa quvuri orqali gaz yetkazish hajmi 19 foizga o`sdi.⁴⁹

Tojikiston Respublikasida yoqilg`i-energetika sonatining muammoga duch kelishiga aholi to`lov qobiliyatining pastligi katta zarar ko`rsatmoqda. Buning natijasida Tojikiston yoqilg`i-energetika kompleksi rentabelligi past hisoblanadi.

So`nggi 10 yillikda quyidagi faktorlar mamlakat yoqilg`i-energetika sanoati uchun muammolar yaratmoqda:

- Sohada foydalanilayotgan texnika va uskunalarning, elektroenergiya ishlab chiqaruvchi manbalar, elektr yetkazuvchi liniyalar, gaz yetkazuvchi quvurlarning eskirganligi;
- Elektroenergetika va issiqlik energiyasi, gaz, neft, ko`mir ishlab chiqarish quvvati rezervining kamayib ketgani;
- Geologik-qidiruv ishlarining va energo-resurslarni qayta ishlash hajmining keskin qisqarib ketgani;
- Yoqilg`i-energetika kompleksini qayta tiklash va rivojlantirish uchun investitsiyalarning mavjud emasligi;
- Barcha turdagi energo-resurslarning samarasiz ishlatilishi;
- Mamlakat aholisining gaz va elektroenergiyadan foydalanganlik uchun to`lovlarni vaqtida amalga oshira olmasligi.

⁴⁹ www.top.rbc.ru/Россия восстановила поставки газа в Европу

Ushbu muammolarni hal etish uchun Tojikiston O`rta Osiyo va Yevroosiyo ittifoqi mamlakatlari bilan soha rivojlantirishga mo`ljallangan ikki tomonlama foydali shartnolamarni tuzishi lozimdir.⁵⁰

Turkmaniston Respublikasining yoqilg`i-energetika sanoati bilan bog`liq muammolari “Turkmanistonda neft-gaz sanoatini 2030 yilga qadar rivojlantirish dasturi” ning yetarlicha samarali olib borilmayotgani bilan bog`liqdir. Mamlakatga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyaning asosiy qismi neft-gaz sohasiga yo`naltiriladi, ammo tarmoqda neft qazib chiqarish hajmi o`smayapti, neftni qazib oluvchi korxonalarining modernizatsiyalanish darajasi sekin amalga oshirilmoqda, aholi to`liq gaz bilan ta`minlanmagan va qish mavsumida aholining aksariyat qismi tabiiy gabsiz qolmoqda.⁵¹

**O`zbekistonda** yoqilg`i-energetika tarmog`i rivoji bilan bog`liq muammolar, boshqa MDH mamlakatlaridagi singari geologik qidiruvlarning kamaygani, tarmoqda foydalanilayotgan texnika va uskunalarning eskirganligi, suv resurslarining mintaqada notekis taqsimlanganligi bilan bog`liqdir. Mamlakatimiz iqtisodiyotining istiqboldagi o`rish sur`atlarini hisobga olib, Prezidentimiz o`zining "O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobida shunday yozadi: "Aniqlangan yoqilg`i-energiya resurslari respublikaning tabiiy gazga bo`lgan ehtiyojini 35 yil, neftga bo`lgan ehtiyojini 30 yilga qoplaydi".⁵² Shu sababli O`zbekiston uchun yoqilg`-energetikaning qayta tiklanuvchi va alternativ turlarini iste`molga keng joriy etish masalasi muhim vazifalardan biri bo`lib turibdi.

Mamlakatimiz hududidan o`tuvchi ikki eng asosiy daryolar- Amudaryo va Sirdaryoning qo`shni mamlakatlar hududidan o`tib kelishi gidro-energetika sohasi rivojida ayrim muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.⁵³

⁵⁰ Концепция развития отраслей топливно-энергетического комплекса Республики Таджикистан на период 2003-2015 Годов

⁵¹ www.neftegaz.ru/ Результаты ТЭК за 7 мес 2014 г на заседании КабМина Туркменистана. Г.Бердымухамедов был очень строг

⁵² I.Karimov -“O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. T.:1997

⁵³ Национальное сообщение-Узбекистан на пути к устойчивому развитию/Ответственный за выпуск Н.М. Умаров Председатель Государственного комитета Республики Узбекистан по охране природы

MDH mamlakatlarida umumiy olib qaraganda yoqilg'i-energetika sanoati rivojiga texnika va uskunalarning eskirganligi va modernizatsiyaga muhtojligi, geologik qidiruv ishlarining keskin qisqargani, energiya tashuvchi liniya va vositalarning sifati pasaygani, energiyaning barcha turlarini ayrim holatlarda samarasiz ishlatilishi kabilar to'siq bo'lmoqda.

MDH mamlakatlarida yoqilg'i-energetika sanoati istiqbollari

Bugungi kunda yiliga tabiiy yoqilg'i ishlatish miqdori dunyo bo'yicha 12 milliard tonna neft ekvivalentiga to'g'ri keladi (taxminan bir kishiga 2 tonna). Qazib olinayotgan neft, tabiiy gaz, ko'mir va uran hozirgi vaqtda dunyoda asosiy energiya manbalari hisoblanadi. Agar ularni shu sur'atlarda ishlatish davom etsa,

dunyodagi qazib olinayotgan neft zahiralari 45-50 yilga, tabiiy gaz zahiralari 70-75 yilga, tosh ko'mir zahiralari 165-170 yilga, qo'ng'ir ko'mir zahiralari 450-500 yilga yetadi.⁵⁴ Shu sababli ham har bir mamlakat uchun yoqilg'i-energetika sanoatini modernizatsiya qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

BMT "Atrof muhit muhofazasi va taraqqiyot xalqaro komissiyasi" ning hisobotida "Kelajak rivojlanishi, ravnaqi shunday energiyalardan foydalanish formasi, ya'ni, atrof muhit holatiga zarar yetkazmaydigan, xavfsiz, tiklanadigan, kafolatlangan, doimiy o'sib, tiklanib boruvchi va foydalanish imkoniyati mavjud bo'lgan energiyalarga bog'liq bo'lib qoladi", deya qayd etilganligini e'tirof etish joiz.⁵⁵ Energiyaning tiklanmaydigan manbalari hajmi qisqargani sayin alternativ energiya mablarini topish, ularni ishlab chiqarish va xo'jalik hayotga tadbqiq etish dolzarb masalalardan biriga aylandi.

MDH mamlakatlarining iqtisodiy hamkorligini yanada mustahkamlash maqsadida 2008 yili "MDH mamlakatlarining 2020 yilga qadar iqtisodiy hamkorligi dasturi" qabul qilingan edi. Ushbu dasturga ko'ra yoqilg'i-energetika sanoatini rivojlantirish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilishi belgilangan:

- MDH mamlakatlari umumiy elektroenergetika bozorini shakllantirish;
- Transmilliy transport energetika tarmoqlari rivojlantirish;
- Jahon tajribasini o'rgangan holda gidroenergetikani rivojlantirish;
- Yoqilg'-energetika resurslari eksportyorlari, importyorlari va tranzitorlarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish;
- Noan'anaviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning texnik imkoniyatlarini oshirish;
- Yoqilg'i-energetika kompleksi ishlab chiqarish bazasini rivojlantirish, yangi energetik quvvatlarni yaratish va boshqalar.⁵⁶

Ozabayjon Respublikasida 2020 yilga kelib mamlakat energobalansida qayta tiklanuvchi energiya resurslari miqdorini 20 foizga yetkazish va atmosferaga

⁵⁴ www.uzrnature.uz/ Endilikda yurtimizda quyosh energiyasidan samarali foydalaniladi

⁵⁵ www.un.com

⁵⁶ Региональное исследование «Анализ политики государств СНГ в сфере повышения энергоэффективности и возможностей развития сотрудничества в регионе СНГ в целях получения синергетического эффекта»

chiqarilayotgan parnik gazlar miqdorini 20 foizga qisqartirish nazarda tutilgan. 2012 yilda “2020 yilga qadar qayta tiklanuvchi va alternativ energiya manbalaridan foydalanish bo`yicha davlat dasturi qabul qilindi.”⁵⁷


Armaniston yoqilg`i-energetika sanoatining istiqbolli sohalaridan biri gidroenergetika sohasi hisoblanadi. 2011 yil 8 sentabrda mamlakat hukumati tomonidan gidroenergetika sohasini strategik rivojlantirishga oid dastur qabul qilindi. 2013 yil 1 yanvar holatiga ko`ra mamlakat hududida umumiy quvvati 128 MVt va yillik umumiy 600 mln.kVt.s. miqdorida elektroenergiya ishlab chiqara oladigan 137 ta kichik GES lar faoliyat olib bormoqda. Armaniston Energetika Vazirligining prognozlariga ko`ra 2015-2017 yillarda kichik GES lar tomonidan yillik elektroenergiya ishlab chiqarish hajmi 850 – 960 mln.kVt.s. ga yetadi.⁵⁸

Belorussiyada 09.08.2010 da “Belorussiya Respublikasi energetik salohiyatini oshirish strategiyasi” qabul qilingan bo`lib, ushbu dasturning asosiy maqsadi mamlakat yoqilg`i-energetika kompleksini innovatsion modernizatsiyalash va rivojlantirish hisoblanadi. Ushbu dastur ijrosi natijasida mamlakatda YaIM ning energiya talabliligi darajasi 2005 yilga nisbatan 50 foizga qaisqarishi (2020 yilda 60 foiz) lozim hamda mamlakat energobalansida hududiy yoqilg`i-eneretika resurslari, ikkilamchi energoresurslar va qayta tiklanuvchi energiya manbalari hajmi oshirilishi kerak.

Mamlakatda yoqilg`i-energetika mahsulotlari iste`moli hajmi o`shish dinamikasi 6 diagrammada ko`rsatilgan.

6-diagramma

Belorussiyada yoqilg`i-energetika mahsulotlari iste`moli o`shish



dinamikasi (1196-2020):


■	YaIM o`lish hajmi	■	yoqilg`i-energetika mahsulotlari iste`moli, mln.t.
---	-------------------	---	--

Manba: www.rudocs.exdat.com/топливно-энергетический комплекс Республики Беларусь.
Перспективы его развития

2020 yilga kelib mamlakatda yoqilg`i-energetika mahsulotlari umumiy iste`moli 40 mln t.ni tashkil etishi bashorat qilingan bo`lsa, shuningdek bu davrda ko`mir iste`mol qilish hajmi 200 yilga nisbatan 338 foiz o`sb 1.75 mln.tonnani tashkil etadi.

7-diagramma

Belorussiyada elektroenergiya iste`moli hajmi (2002-2020 yillar, % da)



■	Kommunal-xo`jalik sektori	■	sanoat	■	Boshqa tarmoqlar
---	---------------------------	---	--------	---	------------------

Manba: www.rudocs.exdat.com/топливно-энергетический комплекс Республики Беларусь.
Перспективы его развития

Jadvaldan ko`rishimiz mumkinki, 2002 yilda energiyaning deyarli 60 foizi sanoatga sarflanganbo`lsa, 2020 yilga kelib bu ko`rsatkich 47 foizni tashkil etishi ashorat qilingan. 2020 yilga qadar shuningdek, mahalliy yoqilg`i turlari iste`moli hajmini 15 foizga kengaytirish, torf va lignin iste`molini 1.4 mln.t.gacha oshirish maqsad qilingan.

Mamlakatda neft va neft mahsulotlari iste`moli hajmi 2020 yilda 2000 yilga nisbatan 40 foizga oshishi, tabiiy gaz iste`moli esa 1,5 foizga qisqarib 19,5 mln.tonnani tashkil etishi pronoz qilingan.⁵⁹

2012 yilning oxirida **Moldovada** "Moldovaning 2012-2030 yilga mo`ljallangan energetika strategiyasi" qabul qilindi. Unga ko`ra mamlakat ichki

⁵⁹ www.rudocs.exdat.com/топливно-энергетический комплекс Республики Беларусь. Перспективы его развития

salohiyatidan kelib chiqib o`zining elektroenergetikasini ishlab chiqishi maqsad qilib olingan.

10-jadval

Moldova energobalansida qayta tiklanuvchi energiya ulushi (% da, prognoz)

2015 yil	10
2020 yil	20
2030 yil	25

Manba: Исполнительный комитет Содружество Независимых Государств “Развитие использования возобновляемых источников энергии в государствах – участниках СНГ” Москва, 2013 год

Energetika sohasida qayta tiklanuvchi energiyaning miqdori 2020 yilda 10 foiz, 2030 yilda 15 foizni, issiqlik generatsiyasi tarmog`ida esa 4,5 foizni tashkil etishi kutilayapti. Shuningdek, 2015 yilda motor yoqilg`isi umumiy hajmining 4 foizi, 2020 yili 10 foizi biogaz orqali qoplanishi bashorat qilingan.⁶⁰

“**Qozog`istonning** 2030 yilga qadar rivojlanish strategiyasi” dasturida yoqilg`i-energetika sanoatiga muhim e`tibor qaratilgan bo`lib, hozirda Qozog`istonda ushbu tarmoq rivoji uchun quyidagi sohalarda ish olib borimoqda:

- TKT neft quvuri bosqichma-bosqich kengaytirilyotgan bo`lib, ish yakunida 1510 km.ni tashkil etishi nazarda tutilgan;
- Eskene-Kurik neft quvuri qurilishi davom etmoqda va bu Transkasbiy neft quvurining muhim bir yo`lagiga aylanishi mumkin;
- Qozog`iston-Xitoy neft quvurining barpo etilishi jarayonida 768 km.li Kenkiyak-Kumkol quvuri qurilmoqda;
- 40mlrd. m³ quvvatga ega bo`lgan Qozog`iston-Xitoy gaz quvurining qurilish ishlari davom etmoqda;
- Qozog`iston-Turkmaniston-Eron neft quvurining 1 bosqich qurilish ishlari davom etayotgan bo`lib, ushbu quvur orqali Qozog`iston Eronning Neka portiga chiqish imkoniyatiga ega bo`ladi.⁶¹

⁶⁰ Исполнительный комитет Содружество Независимых Государств “Развитие использования возобновляемых источников энергии в государствах – участниках СНГ” Москва, 2013 год

⁶¹Карим Кажимканович Масимов -Топливоно-энергетический комплекс Республики Казахстан: современное состояние и перспективы развития

Rossiya Federatsiyasida bugungi kunda yoqilg`i-energetika sanoatini rivojlantirishga katta e`tabor berilmoqda. 2030 yilga kelib mamlakat YaIMning energiya talabligi darajasi 44 foizdan 53 foizgacha qisqarishi mumkin. Va 2010 yildan boshlab hisoblaganda har yili energiya talabgorligi miqdori 3-3,8 foizdan qisqarib borishi bashorat qilingan. Organik yoqilg`ilar tarkibida ko`mirning ulushi ushbu davr oxiriga kelib 12,5 foizdan 21 foizga ko`tarilishi kutilayotgan bo`lsa, qazib olinadigan neftning yarmi, gazning uchdan biri yer ostidan qazib olinishi prognoz qilinmoqda. Shuningdek, 2040 yilga kelib neft qazib chiqarish xarajatlari 90-235 dollar/t gacha, gaz qazib olish 17 dan 33 dollar/ming m³ va ko`mir qazib olish harajatlari 35 dollardan 55 dollar/t.n.e ga ko`tarilishi mumkin.⁶²

Rossiya Federatsiyasining 2030 yilga qadar yoqilg`i-energetika sanoatini rivojlantirish strategiyasiga ko`ra quyidagilar ustuvor yo`nalishlar etib belgilangan:

- 2030 yilga kelib birlamchi yoqilg`i-energetika resurslarining iste`molini 2005 yilga nisbatan 46-47 foizga qisqartirish;
- Energiyaning noyoqilg`i turlarini rivojlantirish va 2030 yilga kelib birlamchi yoqilg`i-energetika resurslarining iste`molini 11-14 foizda ushlash va boshqalar;

11-jadval

Rossiyaning 2030-2040 yilga qadar energiya balansi prognozlari⁶³:

Ko`rsatkichlar	Ssenariy 1: Rossiya iqtisodiy potentsiali baholanishi*				Ssenariy 2: Rossiya iqtisodiy potentsiali baholanishi **			
	2010	2020	2030	2040	2010	2020	2030	2040
Birlamchi energo resurslar ishlab chiqarish.mln.t.n.e.***	1231,9	1291	1335	1336	1231,9	1354	1408	1399
Ko`mir	151	155	205	260	151	185	225	265
Neft	502	530	540	460	502	530	540	460
Tabiiy gaz	551	570	540	550	551	600	560	550

⁶² Ю.В. Синяк, А.С. Некрасов, С.А. Воронина, В.В. Семикашев, А.Ю. Колпаков - "Топливо-энергетический комплекс России: Возможности и перспективы", 2013

⁶³ Ю.В. Синяк, А.С. Некрасов, С.А. Воронина, В.В. Семикашев, А.Ю. Колпаков - "Топливо-энергетический комплекс России: Возможности и перспективы", 2013

Yadro energiyasi	13,3	21	30	40	13,3	23	39	57
Gidro energiya	14,6	15	18	21	14,6	16	22	23
Energiyaning yangi manbalari	-	-	2	15	-	-	22	44
Energoresurslar eksporti, mln.t.n.e.	580,3	550	532	478	580,3	648	677	633
ko`mir	48,5	63	70	55	48,5	63	65	55
neft	249	260	265	220	249	260	265	220
neft mahsulotlari	115	110	75	45	115	110	70	40
tabiiy gaz	165	130	115	150	165	210	270	310
elektroenergiya	2,8	5	7	8	2,8	5	7	8
Elektroenergiya ishlab chiqarish, mlrd.kVt/s	1038	1200	1355	1390	1038	1345	1820	2585
IES	699	780	750	650	699	897	785	675
AES	171	250	370	460	171	270	430	640
GES	168	170	185	190	168	175	190	190
energiyaning yangi manbalari	-	-	50	90	-	3	415	1080
Elektrostsniyalar quvvati,mln.kVt	230	271	270	275	230	270	394	590
IES	158	155	150	130	158	180	160	135
AES	24	36	53	65	24	39	61	90
GES	48	50	53	55	48	50	55	55
energiyaning yangi manbalari	-	-	14	25	-	1	118	310
Investitsiyaga bo`lgan talab(10 yil davomida)	-	1455	2000	2265	-	1560	2040	2325
Mlrd.AQSH \$								

*Rossiya tabiiy gazi uchun Yevropa bozorlarida ahvol yomonlashgan holatdagi prognoz.gaz narxlari past, slans gazi qazib chiqarish yaxshi yo`lga qo`yilgan holat. Rossiya Yevropaga gaz yetkazuvchi emas.

** Rossiya tabiiy gazi uchun Yevropa bozorlaridagi ijobiy holat. Rossiya Yevropaga gaz yetkazib beruvchi aososy hamkor. Slans gazi qazib chiqarish darajasi past bo`lgan holatdagi prognoz. .

*** 1 kVt·s =860 kkal.

Bu davrda amalga oshirilishi ko`zda tutilgan vazifalar doirasiga “Sharqiy Sibir-Tinch okeani” neft quvurini, neft mahsulotlari yetkazuvchi “Shimol”, “Janub” tizimlarini, “Janubiy oqim”, “Shimoliy oqim” gaz quvurlarini ishga tushirish,

Yamal yarim orolida ko'ptarmoqli gaz tashuvchi transport yo'lagini hosil qilish kabi ishlarni kiritishimiz mumkin.⁶⁴

O'zbekistonda yoqilg'i-energetika sanoatining eng istiqbolli sohalaridan biri qayta tiklanuvchi energiya mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati hisoblanadi. 2013 yilning 20-23 noyabr kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Osiyo quyosh energiyasi forumining oltinchi yig'ilishida Yurtboshimiz o'z ma'ruzasida sanoatning rivojlanib borayotganini hisobga olib, mamlakatimizning elektr energiyasiga bo'lgan talabi 2030 yilda 2013 yilga nisbatan 2 barobarga oshishi va 105 milliard kilovatt/soatga etishini ta'kidladi hamda muqobil energiya manbalaridan samarali foydalanish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.⁶⁵ Shundan kelib chiqqan holda yoqilg'i-energiya resurslarini tejash, ayniqsa, muqobil energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilayapti. 2013 yil 1 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi.⁶⁶ Ushbu Farmonga muvofiq, Toshkentda xalqaro quyosh institutini tashkil etish, Navoiyda fotoelektrik panellar ishlab chiqarish, Samarqandda 100 MVt quvvatli quyosh fotoelektrik stansiyasini ishga tushirish kabi vazifalar belgilandi.

Respublikamiz iqtisodiyotini va aholini uzluksiz energiya bilan ta'minlash, atrof-muhitning "parnik" gazlari (uglerod oksidi, oltingugurt oksidi kabilar) bilan ifloslanishini va global iqlim o'zgarishining oldini olish borasida ham Prezidentimizning ushbu farmoni muhim ahamiyatga ega. Unda belgilangan vazifalarni amalga oshirish natijasida quyosh va biogaz energiyasidan foydalanishning yanada samarali usullari va texnologiyalari ishlab chiqiladi, ilmiy tadqiqotlar rivojlantiriladi hamda zamonaviy moddiy-texnik baza yaratiladi.

O'zbekiston janubiy mintaqasining ob-havo va iqlim sharoitlari Qashqadaryo viloyatida quyosh energiyasidan samarali foydalanishda keng imkoniyatlar

⁶⁴ www.minenergo.gov.ru/ Перспективы и стратегические инициативы развития топливно-энергетического комплекса

⁶⁵ www.uzreport.uz

⁶⁶ www.gov.uz

yaratadi. Quyosh energiyasidan foydalanish natijasida avtonom iste'molchilarni issiqlik, issiq suv, chuchuk ichimlik suvi va elektr energiyasi bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, quritish va qayta ishlash, qurilish materiallariga termik ishlov berish jarayonlarida yoqilg'i-energiya resurslarini tejash kabi muhim vazifalarni hal etish mumkin.

O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan, eng avvalo quyosh energiyasidan foydalanish sohasida ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borish borasida salmoqli tajriba to'plangan bo'lib, ular yuzasidan bir qancha o'n yillar mobaynida ishlanmalar olib borilmoqda. Respublikada Markaziy Osiyoda o'xshashi yo'q ilmiy-eksperimental markaz — Fanlar akademiyasining «Fizika-Quyosh» ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil qilingan bo'lib, uning tadqiqotlari natijalari jahon miqyosida e'tirof etildi. Issiq suv va issiqlik ta'minoti uchun past potentsialli qurilmalarni yaratish, elektr quvvati olish uchun fotoelektrik va termodinamik o'zgartkichlar, maxsus materiallar sintezi texnologiyalarida, materiallar va konstruksiyalarga termik ishlov berishda quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari, ayniqsa faol va samarali olib borilmoqda.⁶⁷

O'zbekistonning quyosh energiyasi bo'yicha yalpi salohiyati 50973 mln. tonna neft ekvivalentiga teng deb baholanadi, bu esa Respublika hududidagi hozirgacha tekshirilgan barcha qayta tiklanuvchi energiya manbalarining 99,7 foizga teng.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 27 maydagi "2013-2017 yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha harakatlar dasturi to'g'risida"gi Qarori ijrosi doirasida "Eko-energiya" ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan Qashqadaryo viloyatidagi Kasbi, Kitob va Shahrisabz tumanlarining chekka qishloqlari – Komilon, Yuqori Maymanoq, Varganzadagi qishloq ta'lim va tibbiyot muassasalariga quyosh batareyalari o'rnatildi.


⁶⁷ Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni /2013 yil 1 mart

O'zbekiston hududida 8 ta gidrotermal resurslar xavzalarini aniqlangan bo'lib, geotermal resurslarning yalpi salohiyati 2442 ming tonna shartli yoqilg'i deb baholangan. Geotermal suvlarning eng katta salohiyati Farg'ona vodiysiga (Namangan viloyati - 42,6 ming tonna shartli yoqilg'i) va Buxoro viloyatiga-81,2 ming tonna shartli yoqilg'i to'g'ri keladi ⁶⁸.

Hozirda mamlakatimizda bu sohani rivojlantiish uchun ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda (misol uchun "Eko-energiya" ilmiy tadqiqot makrazi loyihalari, "O'zbekenergo" DAK tomonidan Samarqand viloyatida fotoelektr stansiyasining qurilishi). O'zbekistonda 2030 yilgacha issiqlik-energiya balansining konsepsiyasini shakllantirish vazifasi qo'yilgan bo'lib, uning asosiy maqsadlari quyidagilar:

O'zbekistonda 2030 yilgacha issiqlik-energiya balansi konsepsiyasi maqsadlari⁶⁹:

7-chizma



⁶⁸ www.uznature.uz /Xalqaro yiliga bahishlangan "Respublikada qayta tiklanuvchi energiya manbalarini tadbqiq qilish tajriba va istiqbollari"

⁶⁹ O'sha manba.

Dunyoda foydalaniladigan qayta tiklanuvchi energiya turlaridan biri shamol energiyasidir. O'zbekistonda shamol energiyasining yalpi salohiyati 2,2 mln.t.n.e. deb baholangan. O'zbekiston hududining geografik holatiga ko'ra, shamol oqimlari mavsumiy xarakterga ega.

O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiyaning muqobil turlaridan foydalanish uchun ulkan salohiyat mavjud. Eng avvalo, O'zbekistonning mo'tadil iqlim sharoitni hisobga olgan holda, quyosh energiyasidan foydalanish mexanizmlarini yo'lga qo'yish katta samara beradi.

MDH mamlakatlari umumiy olib qaraganda ulkan yoqilg'i-energetika resurslariga ega. Ushbu mamlakatlarda yoqilg'i-energetika sanoatining eng istiqbolli sohalarida biri muqobil energiya manbalarini ishlab chiqarish sanoati hisblanadi. Yoqilg'ining an'anaviy manbalari - neft, tabiiy gaz, ko'mir ishlab chiqarishni kamaytirish, suv, shamol, quyosh kabi tabiiy vositalardan olinadigan energiya miqdorini oshirish strategiyasi hozirda har bir Hamdo'stlik mamlakatlarida amalga oshirilmoqda. Chunki hozirgi davr iqtisodiyoti muayyan bir tizim sifatida nafaqat iqtisodiy o'sish, texnik mukammallik hamda raqobatbardoshlik tamoyillari asosida shakllanishi, balki har bir inson yashash sharoitini yaxshilashi hamda kelajak avlodlar uchun qulay iqtisodiy sharoit yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Xulosa

Yoqilg'i-energetika kompleksi milliy iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida iqtisodiy va texnik taraqqiyotining mustahkam poydevori hisoblanadi. Yoqilg'i-energetika sanoati YaIM shakllanishida, sanoat markazlari va hududlarini vujudga kelishida katta ahamiyat kasb etadi.

MDH mamlakatlari jahon xo'jaligining boshqa mintaqalaridan boy yoqilg'i-energetika resurslari bilan ta'minlanganligi va jahon yoqilg'i-energetika sanoatida muhim rol o'ynashi bilan ajralib turadi.

MDH mamlakatlari milliy yoqilg'i-energetika sanoatlarining rivojlanganlik darajasi turlicha bo'lib, Rossiyaning yoqilg'i-energetika sanoati rivoji tashqi omillar, siyosiy jarayonlar o'zgarishiga qattiq bog'langandir. Aksincha, jahon iqtisodiy tizimidagi ayrim o'zgarishlar nisbatan yopiq iqtisodiy siyosat olib boruvchi O'zbekiston va Turkmaniston yoqilg'i-energetika sanoatiga qattiq ta'sir ko'rsatmaydi.

MDH mamlakatlari ichida Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston neft va tabiiy gaz resurslariga boy mamlakatlar hisoblanadilar. Moldova, Armaniston kabi mamlakatlar esa o'z energiya ehtiyojlarining asosiy qismini import orqali qoplaydi.

So'nngi yillarda MDH mamlakatlarida yoqilg'i-energetika sanoatida ko'mir va ikkilamchi yoqilg'i manbalarini qazib chiqarish hajmi oshib borayotgan bir vaqtda, an'anaviy yoqilg'i manbalaridan neft va gazni ishlab chiqarish hajmi bir oz qisqardi. Lekin shunga qaramasdan 2020 yilga kelib, MDH mamlakatlarining jahon bozoriga neft eksporti hajmi 1,5 barobar oshishi bashorat qilindi.⁷⁰

Neft sanoatini rivojlantirish uchun MDH quyidagi jabhalarga katta e'tibor qaratishi lozim:

1. Neftning alternativ zahiralari. MDH hamdo'stligida joylashgan joriy asosiy neft zahiralarining ko'pchiligi noqulay geografik makondaligi bois, Kaspiy dengizi va Bering bo'g'ozi yangi neft zaxiralari maskaniga aylanishi ehtimoli yuqori. Bu esa, MDH neftining Yevropaga eksporti hajmini va sifatini oshirishga, harajatlarni esa kamaytirishga olib kelishi mumkin;
2. Janubiy yo'nalishni rivojlantirish. MDH asosiy urg'uni Yevropaga neft eksport qilishga qartibgina qolmadan, o'zining janubiy-sharqiy qo'shnilari: Afg'oniston, Pokiston, Hindistonga neft mahsulotlari yetkazib berishni yo'lga qo'yishi mumkin. Janubiy yo'nalishga mo'ljallanga neft quvurlarining barpo etilishi Tojikiston, Afg'oniston va Qirg'iziston kabi mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishiga va ahamiyati oshishiga ijobiy ta'sir qilishi mumkin. Shuningdek Janubiy yo'nalishni rivojlantirish orqali, issiq dengizlarga chiqish imkoniyati tug'iladi. Bu esa o'z navbatida Fors ko'rfazi va Yevropa bandargohlariga nisbatan ancha arzon Hind va Pokiston portlari orqali jahon neft bozoriga chiqish imkonini beradi.
3. Sharqiy yo'nalishni rivojlantirish. Bilamizki, Rossiya va Xitoy Xalq Respublikasi bu ikki mamlakatni bog'lovchi neft quvurlarini ishga tushirishni rejalashtirishgan va bu quvurlarning kata qismi MDHning

⁷⁰ www.Today.Kz/Экономика/Финансы

boshqa mamlakatlari, jumladan Markaziy Osiyo orqali ham o'tadi. Bu esa, neft bozorining alternativ shakllarini topish bilan bir qatorda, Markaziy Osiyo mamlakatlari neftining ham Xitoyga eksport qilinishiga sharoit yaratishi mumkin.

Yoqilg'i-energetika sanoati rivoji uchun to'sqinlik qilayotgan ko'plab muammolar mavjud bo'lib, ular sirasiga aniqlangan resurslar hajmining qisqarayotgani, geologik qidiruvlar sonining keskin kamayib ketgani, texnika va uskunalarning eskirganligi va modernizatsiyaga muhtojligi, energiya tashuvchi liniya va vositalarning sifati pasaygani, energiyaning barcha turlarini ayrim holatlarda samarasiz ishlatilishi kabilarni kiritishimiz mumkin. Shuningdek, atrof muhit va ekologiyaga yetkazilayotgan zarar miqdori ortgan sayin yoqilg'i-energetika sanoatida "yashillashtirish" siyosatini olib borish lozimligi yanada muqarrar bo'lib qolmoqda. Qayt tiklanuvchi muqobil energiya resurslari sanoatini rivojlantirish esa bu kabi muammolarga yechim topishda tog'ri yo'l sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.Karimov -"O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". T.:1997;
2. Karimov I.A. "O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi" 13-jild.-T.: "O'zbekiston", 2005;
3. I.Karimov. Bosh maqsadimiz- keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. T.: O'zbekiston, 2013; 11-12 b.;
4. Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni /2013 yil 1 mart
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi; 15.01.2015;
6. Н.М. Умаров "Узбекистан на пути к устойчивому развитию". 2013г.

7. Salimov X., Xatamov A., Mamajonov M. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2008.;
8. Л. Исаева, О.Ахмедов, М. Асимова-“Пути совершенствования энергобаланса Узбекистана”. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, апрель, 2013 йил;
9. Национальное сообщение-Узбекистан на пути к устойчивому развитию/Ответственный за выпуск Н.М. Умаров Председатель Государственного комитета Республики Узбекистан по охране природы;
10. Е.А.Козловский «Страны СНГ: исследование недр – стратегическая проблема»;
11. Azerbaijan: “Follow-UP IN-DEPTH Review of the Investment Climate and Market Structure in the Energy Sector” Energy Charter Secretariat, 2013;
12. Ю.К. Шафраник: “Энергетика в СНГ: “Вчера, сегодня, завтра” Федеральный Справочник «Топливо-энергетический комплексы СНГ», выпуск 13, 2013 г;
13. Ю.К. Шафраник, «Нефть-это испытание» Журнал «ТЭК России», №8, 2013 г.;
14. Аналитический бюллетень «Нефтегазодобывающая и нефтеперерабатывающая промышленность: тенденции и прогнозы», выпуск №1, итоги 2012 года, изд. «РИА-Аналитика»-Центр экономических исследований, М.: 2013;
15. Ю.В. Синяк, А.С. Некрасов, С.А. Воронина, В.В. Семикашев, А.Ю. Колпаков-“Топливо-энергетический комплекс России: Возможности и перспективы”, 2013;
16. Концепция развития отраслей топливно-энергетического комплекса Республики Таджикистан на период 2003-2015 Годов;
17. Региональное исследование «Анализ политики государств СНГ в сфере повышения энергоэффективности и возможностей развития сотрудничества в регионе СНГ в целях получения синергетического эффекта»;

18. Исполнительный комитет Содружество Независимых Государств
“Развитие использования возобновляемых источников энергии в
государствах – участниках СНГ” Москва, 2013 год;
19. Карим Кажимканович Масимов -Топливо-энергетический комплекс
Республики Казахстан: современное состояние и перспективы развития;
20. Е.А.Козловский «Страны СНГ: исследование недр – стратегическая
проблема»
21. Таджикистан Экспресс--оценка и анализ пробелов. 2013г
22. Крамчикина М.Л. «Место и роль стран СНГ в мировом хозяйстве»,
Омск:2013;
23. www.uznature.uz /Xalqaro yiliga bahishlangan "Respublikada qayta
tiklanuvchi energiya manbalarini tadbqiq qilish tajriba va istiqbollari"
24. www.e-cis.info/Информационно-аналитические материалы “О
состоянии и развитии минерально-сырьевой базы государств – участников
СНГ (2014 год)”;
25. www.Grandars.ru/Размещение отраслей топливно-энергетического
комплекс;
26. www.Grandars.ru/Топливо-энергетический комплекс;
27. www.shafranik.ru/«Мировой рынок нефти: взгляд из России;
28. www.eia.gov/ Azerbaijan - Analysis - U.S. Energy Information
Administration (EIA)
29. www.newtemper.com/ Топливо-энергетический комплекс Республики
Беларусь;
30. www.neftegaz.ru/ Нефть, газ, уголь и энергетика Киргизии;
31. www.mfa.tj/ Обзор энергетического сектора Республики Таджикистан;
www.artiklez.com/ Топливо-энергетический комплекс Республики
Казахстан и его экспортный потенциал;
32. www.mfa.tj/ Обзор энергетического сектора Республики Таджикистан;
33. www.minenergo.gov.ru/Министерство Энергетики Российской
Федерации;

34. www.ria.ru /Минэнерго ожидает добычу нефти в 2015 году на уровне 525 млн тонн;
35. www.ecoteco.ru/ Топливо-энергетический комплекс России;
36. www.neftegaz.ru/ Результаты ТЭК за 7 мес 2014 г на заседании КабМина Туркменистана. Г.Бердымухамедов был очень строг;
37. www.uza.uz/ O‘zbekistonda neft-gaz sanoati jadal rivojlanmoqda;
38. www.qashqadaryo.uz/ Qashqadaryo viloyat hokimligi rasmiy sayti;
39. www.ereport.ru/ statistics;
40. <http://shafranik.ru/publikatsii/energetika-i-geopolitika;>
41. www.rgu.ru/ Всемирный Банк:Средняя цена нефти в 2015 году составит 60 долларов;
42. www.ved.gov.ru/Россия-показатели нефтяной промышленности;
43. [www.ved.gov.ru//Belorussiya-neftyanaya-promishlennost//obsheisvedeniya;](http://www.ved.gov.ru/Belorussiya-neftyanaya-promishlennost/obsheisvedeniya)
44. www.burneft.ru/Основные проблемы инновационного развития нефтегазовой отрасли в области добычи нефти и газа;
45. www.Today.Kz/Экономика/Финансы;
46. www.fineco/abc.az/ Проблемы топливно-энергетического комплекса Азербайджана;
47. www.newtemper.com/Топливо-энергетический комплекс Республики Беларусь;
48. www.articlez.com/ Анализ нефтегазового комплекса Республики Казахстан и его диверсификация;
49. www.led-ca.net/Энергоэффективность в Киргизии;
50. www.top.rbc.ru/Россия восстановила поставки газа в Европу ;
51. www.itar-tass.com/ekonomika/1491613;
52. www.uzrnature.uz/ Endilikda yurtimizda quyosh energiyasidan samarali foydalaniladi;
53. www.rudocs.exdat.com/топливно-энергетический комплекс Республики Беларусь. Перспективы его развития;

54. www.minenergo.gov.ru/ Перспективы и стратегические инициативы развития топливно-энергетического комплекса;
55. www.un.com;
56. www.gov.uz.